

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“FILOLOGIYA” FAKULTETI 4-BOSQICH TALABASI

ASADOVA MUQADDAMNING

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

MAVZU: “MAHBUB UL-QULUB”DAGI SHE’RIY
PARCHALAR POETIKASI

Ilmiy rahbar: f.f.n. G.Yo.Xoliqulova

SAMARQAND– 2015

MAVZU:

“MAHBUB UL-QULUB”DAGI SHE’RIY PARCHALAR POETIKASI

MUNDARIJA

Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi	3
1-bob: “Mahbub ul-qulub asarining o’rganilishi, kompozitsiyasi	9
1.1. Alisher Navoiy nasri va “Mahbub ul-qulub”ning o’rganilishi haqida	9
1.2. “Mahbub ul-qulub” asari kompozitsiyasi	17
2-bob: “Mahbub ul-qulub”dagi she’riy matnlar va ularning badiiy xususiyatlari	31
2.1. Alisher Navoiy ijodida nasr va nazm uyg’unligi	31
2.2. “Mahbub ul-qulub”da she’riy matnlarning o’rni va janr rang-barangligi	41
2.3. She’riy matnlarning g’oyaviy-badiiy xususiyatlari	47
Xulosa	53
Fo ydalanilgan adabiyotlar ro’yxati	57

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Yurtboshimiz asosli tarzda ta’kidlaganlaridek, “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy sha’nu shuhratini dunyoga tarannum qilgan so’z san’atkoridir... olamda turkiy va forsiy tilda so’zlashuvchi biron-bir inson yo’qki, navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa”.¹ Darhaqiqat, Alisher Navoiy hayoti va adabiy merosi besh yarim asr davomida turli millat vakillari bo’lgan adabiyotshunos, sharqshunos olimlar tomonidan tadqiq va tahlil etilmoqda. Xususan, Alisher Navoiyning ijtmoy-falsafiy va axloqiy qarashlarini o’zida mujassam etgan, bu qarashlar diniy ma’rifat va tasavvuf aqidalari bilan sug’orilgan asarlarini qisqartirmagan, chegaralamagan holda to’laligicha xolis o’rganish hamda o’rgatish borasida jiddiy yutuqlarga erishilmoqda.

Shunday bebaho durdona asarlardan biri, Alisher Navoiy qarashlarining o’ziga xos xulosasi bo’lgan “Mahbub ul-qulub”dir. Turkiy nasrning eng go’zal namunalaridan bo’lgan mazkur asar uzoq yillardan beri navoiyshunoslar diqqatini jalb etib kelmoqda. Biroq, “Mahbub ul-qulub” Navoiy she’riyatining ham noyob gavharlarini o’zida mujassam etganligi sir emas. Navoiyning deyatli barcha nasriy asarlariga xos bo’lgan bu xususiyat haqida adabiyotshunoslikda ayrim umumiy fikr va mulohazalar bildirilgan bo’lsa-da, alohida tadqiqot doirasida o’rganilmagan. Binobarin, bu asarni, uning tarkibidagi she’riy matnlar badiiyatini, poetik xususiyatlarini o’rganish navoiyshunoslikning muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Bu birinchi navbatda “Mahbub ul-qulub” asarning mazmun va g’oyaviy mundarijasini teranroq anglash imkonini bersa, ikkinchi tomondan, Alisher Navoiyning nasriy asarlariga xos bo’lgan badiiyatning o’zgacha jilolariga yana bir bora ilmiy nazar tashlash imkonini yaratadi. Shularni inobatga olib, “Mahbub ul-qulub” asaridagi she’riy parcha yoxud matnlar poetikasini ushbu bitiruv malakaviy ishi doirasida imkon qadar o’rganishga, yoritishga qaror qildik.

¹ Karimov. I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent, 2008-yil. 47-bet.

Mavzuning o`rganilish darajasi. Alisher Navoiy dahosi Sharqda birinchi navbatda lirik merosi (“Chor devon”) hamda buyuk “Xamsa”si tufayli shuhrat taratgan bo’lsa, g’arb madaniyati uni ilk marotaba aynan nasriy asarlari vositasida tanidi. Aniqroq qilib aytadigan bo’lsak, Alisher Navoiyning g’arb ilmiy jamoatchiligiga ma’lum qilingan ilk asarlari ingliz olimi Katrmer tomonidan 1841-yilda aslyatda nashr ettirilgan “Tarixi muluki Ajam” va “Muhokamat ul-lug’atayn” asarlari hamda fransuz sharqshunosi M.Belen tomonidan nashr ettirilgan “Xamsat ul-mutahayyirin” (1861-yilda) va “Mahbub-ul-qulub” (1866-yilda) dan parchalardir.² Buning natijasida Alisher Navoiyning nasriy asarlarini til va adabiy manba sifatida tadqiq etish g’arb adabiyotshunosligida XIX asrning oxirlaridayoq jadal rivojlandi. Bu borada rus olimi Y.E.Bertelsning “Navoiy” monografiyasini alohida qayd etish mumkin. Unda Navoiyning deyarli barcha asarlari qatorida “Mahbub ul-qulub” ham qisman sharhlanadi.³ Olim asar mazmuni va ayrim fasllarini Navoiy hayotining so’nggi oylaridagi voqeliklar bilan birga talqin etishi muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asr o’zbek adabiyotshunosligining tamal toshini qo’yan Abdurauf Fitrat 1928-yilda nashr ettirilgan “Aybatul haqoyiq” nomli maqolasi hamda “O’zbek adabiyoti namunalari” xrestomatiyasida Alisher Navoiyning nasriy merosi, xususan, “Mahbub ul-qulub” va “Nasoyim ul-muhabbat” asarlariga ham murojaat etadi. Asr o’rtalariga kelib “Mahbub ul-qulub” asarini turli nuqtai nazardan, xususan, Alisher Navoiy nasriy merosining namunasi (N.Mallayev⁴, T.G’afurjonova⁵, S.G’aniyeva⁶), adabiy-tanqidiy qarashlar manbai (A.Hayitmetov⁷, B.Valixo’jayev⁸), buyuk mutafakkirning axloqiy-falsafiy va ijtimoiy qarashlari manbai hamda Navoiy yaratgan adabiy tilning xususiyatlarini aks ettiruvchi manba sifatida (A.K.Borovkov,

² Bu haqda qarang: Bertels Y.E. Navoiy (Rus tilidan I.Mirzayev tarjimasi). – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2015. 97-bet; Valixo’jayev B. Mumtoz siymolar. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2002. 62-bet.

³ Bertels Y.E. Navoiy (Rus tilidan I.Mirzayev tarjimasi). – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2015. 307-313-betlar.

⁴ Mallayev N. O’zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O’qituvchi, 1980.

⁵ G’afurjonova T. Alisher Navoiy ijodiyoti va nasr problemalari // O’zbek nasri tarixidan. – Toshkent: Fan, 1982. 36-59-betlar.

⁶ G’aniyeva S. “Mahbub ul-qulub” // O’zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1977. 341-356-betlar.

⁷ Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari. – Toshkent: Fan, 1959. 66-68-betlar.

⁸ Valixo’jayev B. O’zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: O’zbekiston, 1993.

S.Mutallibov, E.Umarov, X.Doniyorov, J.Hamdorov, B.Yoʻldoshev⁹) oʻrganildi. Bundan tashqari turkiy nasrning eng muhim xususiyatlaridan boʻlgan “saj” usuli¹⁰, Navoiy ijodi va umuman oʻzbek adabiyotida satiraning shakllanishi va taraqqiyotiga doir ilmiy ishlarda (A.Abdugʻafurov tadqiqotlari) ham “Mahbub ul-qulub”ga bevosita murojaat etiladi.

“Mahbub ul-qulub” asari A.Fitrat nashr ettirgan xrestomatiyadan keyin, 1941-yilda chop etilgan “Oʻzbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”ning I tomiga (273-298-betlar), 1959-yilda nashr ettirilgan “Oʻzbek adabiyoti” xrestomatiyasining II tomiga (521-545-betlar) qisman kiritildi. Alisher Navoiy “Asarlar”ining 15 tomliqi, 13-tomi (- Toshkent, 1966)da asar, ayrim qisqartirishlar bilan nashr ettirildi.

Mazkur ishlar istiqldan keyin yanada jonlandi, yangi-yangi yoʻnalish va usullar bilan boyidi. Bu borada, ayniqsa, Navoiyning tasavvufiy qarashlarini tadqiq etishga kirishgan deyarli barcha olimlar (N.Komilov¹¹, I.Haqqul, S.Olimov va b.) “Mahbub ul-qulub”ga, undagi “Ishq” hamda ijod ahli haqidagi fasllarga murojaat etishdi, yangicha talqinlar yuzaga keldi. Bu borada, ayniqsa, Sh.Hayitovning ilmiy ishlari eʼtiborga molik.¹²

“Oʻzbek adabiyoti tarixi”ga doir nashr ettirilgan oʻquv adabiyotlarida “Mahbub ul-qulub” asariga alohida eʼtibor qaratildi.¹³ Eng muhimi, asar ilk marotaba toʻliq holda Navoiyning “Mukammal asarlar toʻplami” 14-tomida (Toshkent: Fan, 1998. 5-130-betlar) kitobxonlar hukmiga havola etildi.

“Mahbub ul-qulub” asari tadqiqiga bagʻishlangan barcha ilmiy ishlarda asar tarkibidagi sheʼriy matnlar yoki parchalarga ham u yoki bu darajada murojaat etiladi. Biroq bu masalaga bagʻishlangan alohida maxsus ilmiy ish yaratilmagan.

⁹ Yoʻldoshev B. Alisher Navoiy prozasida frazeologizmlar // Alisher Navoiy ijodini oʻrganish masalalari. – Samarqand: SamDU nashri, 1981. 94-100-betlar.

¹⁰ Sarimsoqov B. Oʻzbek adabiyotida sajʼ. – Toshkent: Fan, 1978.

¹¹ Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – Toshkent: Yozuvchi, 1996.

¹² Hayitov Sh. “Mahbub ul-qulub”da tasavvuf jilolari. – Toshkent: Fan, 1996; Hayitov Sh. Barkamol inson orzusi. – Toshkent: Fan, 1996

¹³ Valixojayev B. Oʻzbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. – Samarqand: Sam DU nashri, 2002. 116-127-betlar; Vohidov R., Eshonqulov H. Oʻzbek mumtoz adabiyoti tarixi. (Oʻquv qoʻllanma) –T.: Yangi asr, 2006. 431-438-betlar.

**Mavzuning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog`liqligi.** Bugungi kunda adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning istiqbol rejasini mumtoz adabiyotimizning jahon adabiy jarayoni tarixi va taraqqiyotidagi mavqei, mumtoz asarlarimizning mavzu va g`oyalar ko`lami, badiiy barkamolligini ilmiy-nazariy jihatdan xolisona tadqiq etish belgilab beradi. Shundan kelib chiqqan holda, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti o`zbek adabiyoti tarixi kafedrasida 2011-2015-yillar uchun “Alisher Navoiy ijodi va adabiy ta’sir masalasi” mavzusini tanlagan bo`lib, mazkur tadqiqot ushbu keng qamrovli muammo bilan bog`liq holda Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi she’riy matnlar badiiyatini yoritishga qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. Bitiruv ishining asosiy maqsadi Alisher Navoiyning axloqiy-tarbiyaviy va ijtimoiy-falsafiy qarashlari jamlangan “Mahbub ul-qulub” asaridagi she’riy matnlarni janr va badiiyat mezonlari asosida o`rganish, ularning Navoiy lirikasidagi o`rnini aniqlashdan iboratdir.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim bo`ladi:

- Alisher Navoiyning nasriy merosi, unda she’riy parchalar keltirish an’anasini yoritishga bag’ishlangan ilmiy tadqiqot ishlaridagi fikr-mulohaza va ma’lumotlarni umumlashtirish, ilmiy tahlil etish;
- Fors-tojik va turkiy adabiyotda nasriy yo’lda yozilgan axloqiy-didaktik asarlarda she’riy janrlardan foydalanish an’anasiga doir ilmiy va adabiy material to’plash, tahlil qilish;
- “Mahbub ul-qulub” asari tarkibidagi she’riy matnlarni janr nuqtai nazaridan tadqiq etish;
- Asardagi she’rlarning mazmun va g’oyaviy mundarijasini tahlil qilish;
- she’riy matnlarning vazni, badiiy xususiyatlarini yoritish.

Tadqiqotning ob’yekti va manbalari. Tadqiqotning asosiy ob’yekti Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari tarkibidagi she’riyat namunalari. Qiyoslash maqsadida Navoiyning boshqa nasriy asarlariga ham murojaat etildi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishda “Mahbub ul-qulub” asarining turli nashrlari [36, 37, 50, 51]¹⁴ dan foydalanildi. Shuningdek, Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam” [45], “Tarixi anbiyo va hukamo” [44, 48], “Nasoyim ul-muhabbat” [47], manoqib va holotlari [40, 41, 42, 49]ga ham o’rni bilan murojaat etildi.

She’riy matnlarning janr xususiyatlarini aniqlash va tahlil qilishda R.Orzibekov [19, 20], vazni va badiiy san’atlarini tahlil qilishda A.Husayniy [35], A.Hojiahmedov [33, 34] S.Tohirov [24] yaratgan ilmiy va o’quv adabiyotlardan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologiyasi va metodi. Milliy istiqlol mafkurasi hamda yurtboshimizning milliy mafkura va madaniyatga doir dasturiy ko’rsatmalari, gumanitar sohalar va umuman ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yo’nalishlariga oid qarashlari ushbu bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini tashkil etadi. Adabiyotshunoslik sohasida fundamental tadqiqotlar yaratgan A.Hayitmetov, B.Valixo’jayev, A.Qayumov, R.Orzibekov, I.Haqqulov, M.Muhiddinov, D.Salohiy kabi olimlarning ilmiy ishlaridagi tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Mavzuni izchil va atroflicha yoritish maqsadida qiyosiy-tarixiy, va tipologik, tavsif va sharh metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Bitiruv ishda Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari tarkibidagi she’riy matnlar ilk marotaba alohida ish doirasida o’rganilmoqda. Bitiruv ishi materiallari, unda bildirilgan fikr-mulohaza va xulosalar Akademik litsey va KH kolejlari hamda oily ta’lim bakalavriat bosqichining “Filologiya va tillarni o’qitish” yo’nalishi o’quv dasturlariga kiritilgan “Adabiyot”, “O’zbek mumtoz va milliy uyg’onish davri adabiyoti tarixi” kabi fanlar yuzasidan yaratiladigan o’quv adabiyotlarining “Alisher Navoiy she’riyati”, “Alisher Navoiyning nasriy merosi” ga oid bob va fasllarini to’ldirish, takomillashtirish imkonini berishi mumkin.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi Kirish, jami beshta faslni o’z ichiga oladigan ikkita asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyot va manbalar ro’yxatidan iborat bo’lib, umumiy hajmi 60 sahifani tashkil etadi.

¹⁴ Katta qavs ichidagi raqamlar manbaning adabiyotlar ro’yxatidagi tartib raqamini ifodalaydi. Keyingi o’rinlarda manbaning sahifasi nuqtadan keyin ko’rsatiladi.

1-BOB: “MAHBUB UL-QULUB” ASARINING O’RGANILISHI, KOMPOZITSIYASI

1.1. Alisher Navoiy nasri va “Mahbub ul-qulub”ning o’rganilishi haqida.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko’p asrlar mobaynida yaratib kelingan g’oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan nihoyatda muhim vazifa”¹⁵ga aylandi. Zero yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Xalqning ma’naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o’ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo’lida muvaffaqiyatli ravishda olg’a siljitishda hal qiluvchi, tab’ir joiz bo’lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir”.¹⁶ Millat ma’naviy kamolotining asosiy omillaridan biri bu badiiy ijod durdonalariga munosabat, unga oshuftalik, buyuk bobokalonlarimiz qoldirgan bebaho ijod namunalaridan bahramand bo’lish, ularni har tomonlama tahlil, tadqiq va tadbqiq etishdir. Bu borada “avliyolar avliyosi, mutafakkirlar mutafakkiri va shoirlar sultoni” Alisher Navoiy adabiy merosi alohida ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy “G’azal mulkining sultoni” (M.Shayxzoda) hamda “Xamsa”ni takmil etgan” (B.Valixo’jayev) buyuk so’z san’atkori bo’lish bilan birga, ilm va madaniyatning turli sohalariga oid bebaho nasriy asarlar ham yaratgan mutafakkirdir. Navoiy dahosi Sharqda avvalambor benazir lirik merosi, devonlari hamda “nazirai benazir” “Xamsa”si tufayli shuhrat taratgan bo’lsa, g’arb madaniyati uni ilk marotaba aynan nasriy asarlari vositasida tanidi. Aniqroq qilib aytadigan bo’lsak, Alisher Navoiyning g’arb ilmiy jamoatchiligiga ma’lum qilingan ilk asarlari ingliz olimi Katrmer tomonidan 1841-yilda aslyatda nashr ettirilgan "Tarixi muluki Ajam" va "Muhokamat ul-lug’atayn" asarlari hamda fransuz sharqshunosi M.Belen tomonidan nashr ettirilgan "Xamsat ul-mutahayyirin" (1861-yilda) va "Mahbub-ul-qulub" (1866-yilda) dan parchalardir. Bu haqda rus navoiyshunos olimi Y.E.Bertelsning “Navoiy” monografiyasida [6. 97] hamda akad. B.Valixo’jayevning “Mumtoz siymolar” kitoblarida [11. 62] ancha batafsil ma’lumot berilgan. Buning natijasida, Alisher

¹⁵ Karimov. I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari. – T., 1998, 524-b.

¹⁶ Karimov. I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent, 2008-yil. 39-bet.

Navoiyning nasriy asarlarini til va adabiy manba sifatida tadqiq etish g'arb adabiyotshunosligida XIX asrning oxirlaridayoq jadal rivojlandi.

Yuqorida tilga olingan olim Y.E.Bertels o'zining "Navoiy" monografiyasida buyuk shoir va mutafakkir hayoti va adabiy merosini tavsif va tahlil etish asnosida uning nasriy asarlari, xususan, "Mahbub ul-qulub" asariga ham alohida to'xtaladi [6. 307-313]. Olim asar mazmuni va ayrim fasllarini Navoiy hayotining so'nggi oylaridagi voqeliklar bilan birga talqin etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Unda, jumladan, quyidagilarni o'qiymiz:

"1500 -yil kirdi. Hirotda sharoit hamon o'sha-o'sha: goh u yerda, goh bu yerda shaxzodalarning allaqachon zaiflashib qolgan yurtni yanada tanazzulga tortgan qo'zg'olonlari bo'lib turadi. G'arbdan temuriylarning dahshatli dushmani – temuriylar va ularning yuvindixo'rlarini yer yuzidan supurib tashlash vazifasini o'z zimmasiga olgan Shayboniyxon yo'lga tushgandi.

Shu payt hamon yolg'izlikda hayot kechirayotgan va ahyon – ahyonda muhim topshiriqlar olib turgan Navoiy o'zining so'nggi kitobi – "Mahbub ul – qulub" ("Qalblar sevgilisi") asarini yozishga kirishadi.

Mohiyatan u Sa'diy tomonidan "Guliston"da ilk marta qalamga olingan Jomiyning "Bahoriston"ida rivojlantirilgan mavzuni davom ettiradi. Kuchli didaktik yo'nalishda yozilgan bu asar shoirning uzoq umri davomida to'plangan tajribasini o'zida mujassam etgan bo'lishi va davrga baho berishi kerak edi.

Kitob maroq bilan o'qiladi. Unda biz Navoiyning so'ngi so'ziga duch kelamiz. Asar yozishga o'zini qiynagan o'ylar bilan kirishdi. Biz uning oxirgi yillari og'ir kechganini, qanday qorong'i hislar uni qiynaganini bilamiz. Shuningdek biz ushbu kitob muqaddimasida gapirilgan qadrdon vatanni butunlay tashlab ketmoqchi bo'lganidan ham xabardormiz.

Uning o'z oldiga qo'ygan vazifasi – nasrda juda muxtasar tarzda kishilik jamiyatining tuzilishi, kishilararo muloqot asoslari haqidagi masalaga doir fikrlarni bayon qilishdan iborat bo'lgan. Asar nasri vaznga solingan, qofiya bilan xo'p ziynatlangan" [6. 307].

Olim asar haqidagi fikrlarini tasdiqlash maqsadida zolim sultonlar hamda dehqonlar haqidagi fasllardan kattagina matnlar keltirib izohlaydi. Uning fikricha: “Mahbub ul-qulub” Navoiyning, ehtimol, eng murakkab asarlaridan biri. Bu tushunarli: u adabiyotdan ovunchoq izlaydiganlar uchun yozolmagan. Bu yerda har bir gap qalban aytilgan, o’ylangan, aql tarozisiga solingan va shuning uchun o’quvchidan jiddiy, mulohazali munosabatda bo’lishni talab qiladi. Uning uchun asarda davr shart – sharoitlari bilan izohlanuvchi qandaydir alamli ohang mavjud. Navoiyning umri oxirlayotgan edi. U umr bo’yi davlatni boshqarish haqida rejalari amalga oshadi, tartib o’rnatiladi, Iskandar Arastuning maslahatlaridan foydalangani kabi, Temuriylar ham uning pand - o’gitlaridan foydalanadi; o’zlari orasidan, Navoiyning fikricha, ideal tip talablariga javob bera oladigan hukmdorni tayinlaydilar deb o’yladi. Endi u orzularining sarob ekanlagini ko’rdi. Temuriylar uning orzu-umidlarini chippakka chiqardilar. Gullab-yashnash o’rniga, yurt kundan-kunga xarobaga aylanib bordi, har qadamda inson huquqi oyoq osti qilindi. Sulola ichidagi shafqatsiz qon to’kishlar og’a- inilarning yangidan-yangi urushlarini keltirib chiqardi. Navoiy temuriylar davlatining inqirozga yaqin qolganini angladi. Unga o’zining barcha harakatlari so’zda ham, amalda ham foyda keltirmagandek tuyuldi. Uning shaxsiy hayoti fojeasi shunda” [6. 313].

XX asr o’zbek adabiyotshunosligining tamal toshini qo’ygan Abdurauf Fitrat 1928-yilda nashr ettirilgan “Aybatul haqoyiq” nomli maqolasi hamda “O’zbek adabiyoti namunalari” xrestomatiyasida Alisher Navoiyning nasriy merosi, xususan, “Mahbub ul-qulub” va “Nasoyim ul-muhabbat” asarlariga ham murojaat etadi. Asr o’rtalariga kelib “Mahbub ul-qulub” asarini turli nuqtai nazardan tadqiq va tahlil etish, nashr ettirish va sharhlash ishlari ancha jadallasdi.

Mashhur adabiyotshunos va navoiyshunos A.Hayitmetov 1959 yilda nashr ettirilgan “Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari” nomli monografiyasida “Mahbub ul qulub” asariga ham murojaat etib, unda ifodalangan adabiy-tanqidiy fikrlarni sharlaydi [28. 66-68]. Olim asar tarkibidagi ikki faslga alohida e’tibor qaratadi: “Mahbub ul – qulub” da ham Navoiy ikki fasl ajratib, biri o’n oltinchi faslni

“Nazm gulistonining qushlari” zikriga, ikkinchisi – yigirma uchinchi faslni “Qissasoz va qissaxonlar” zikriga bag’ishlaydi”.

Olim asarning eng muhim fasllaridan biri “Nazm gulistonining xushnag’ma qushlari zikrida” [35. 24-26] haqida mulohaza yuritib yozadi: “Bu kitobning o’n oltinchi faslida Navoiy o’zigacha o’tgan va o’z zamonida yashagan yirik shoirlarni asosan g’oyaviy yo’nalishlariga qarab, to’rt katta guruh – “jamoat”ga bo’ladi. Avvalgi guruhga u diniy mavzularda asar yaratgan mistik shoirlardan birinchi galda Fariduddin Attor (“Mantiq ut-tayr” avtor) hamda Jaloliddin Rumiy (“Masnaviyi ma’naviy” avtor)ni kiritgan. Ikkinchi guruhga esa, u “haqiqat asroriga majoz tariqin maxlut” qilgan, “kalomlarin bu uslubda marbut” etgan shoirlarni kiritgan. Bu guruhga u birinchi galda “Maoni ahlining nukta pardozi Shayx Muslihiddin Sa’di Sheroziy va ishq guruhining pokbozi va pokravi Amir Xusrav Dehlaviy”, “maoni adosiga lofiz hoja Shamsiddin Muhammad al-Hofiz” va boshqalarni kiritadi. Uchinchi guruhga Navoiy “Majoz tariqi adosi” “nazmig’a g’olib!” va “bu shevag’a kjo’proq rog’ib” shoirlarni kiritadi. Navoiyning fikricha, Hoqoniy Shirvoniy, Zohir, Savoji va boshqalar shu guruhga oiddirlar. Xarakterli tomoni shundaki, Navoiy o’sha vaqtlardatoq o’z ustozlari Jomiy ijodining har turli, g’oyaviy jihatdan hatto qarama-qarshi tomonlari borligini bilgan va uni bu guruhlarining birigagina kiritib qolmasdan, uning boy ijodining yuqorida zikr etilgan uch yo’nalishning hammasiga ham mansub ekanini ochiq uqtiradi.

Eng so’nggi (adno) guruhiga Navoiy maqtanchoq, tuturuqsiz, yozgan asarlari na g’oyaviy jihatdan, na badiiy jihatdan talabga javob beradigan, o’ziga mag’rur, no’noq, she’r yozib elga xizmat qilish emas, balki quruq nom chiqarishni mo’ljallagan, adabiyotni bulg’atuvchi “shoir”larni kiritadi. “Mahbub ul-qulub”ning bu o’rni o’sha davr adabiy hayotini xarakterlashda hamda o’z davrining eng ulug’ kishisi – Navoiyning o’sha adabiy hayot a’zolariga munosabatini ochishga ayniqsa muhim ahamiyatga ega.

Navoiy adabiyotshunosligi va adabiy tanqidchiligi haqida shu paytgacha asar yozgan kishilar “Mahbub ul-qulub”ning bu o’rinlariga e’tibor qilmay kelganlar.

Navoiyning o'z zamondoshlariga keskin munosabati ayniqsa bu asarda yaxshi ifodalangan" [28. 68].

Akademik B Valixo'jayevning 1964 yilda nashr ettirilgan "XI-XIX asrlar o'zbek adabiy-tanqidiy qarashlari tarixidan" nomli tadqiqotlari, keyinchalik nashr ettirilgan "O'zbek adabiyotshunosligi tarixi" [9] darslik-kitoblarida ham olim va mutafakkir Navoiyning nasriy asarlarida o'z ifodasini topgan adabiy-tanqidiy qarashlar tahlilga tiritiladi.

Shu davrlarda Oliy o'quv yurtlari uchun yaratilgan darslik kitoblarda Alisher Navoiyning nasriy asarlari hamda "Mahbub ul-qulub" asariga oid maxsus mavzular kiritila boshladi. Jumladan N.M.Mallayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" kitobi [16], 5 tomlik "O'zbek adabiyoti tarixi" akademnashrining 2-tomidagi S.G'aniyevaning yirik maqolasi [24. 341-356] shular jumlasidandir. Mashhur navoiyshunos olim S.G'aniyevaning maqolalarida asarga shunday ta'rif beriladi: "Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida o'z zamonasiga va undagi ijtimoiy tabaqalar, guruhlar, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy hodisalarga faol munosabat bildiradi. Lekin asar muqaddimasida o'z aksini topgan muallifning umidsizlik kayfiyati, olam ishlari, olam ahlidan noroziligi, horg'inlik holati asos e'tibori bilan butun kitobning hujumkor ruhi uchun xarakterli emas. Muallif o'zining yuksak optimistik tilagini, kelajak avlodlariga qaratilgan eng pokiza tuyg'ularini, gumanistik niyatlarini, dono o'gitlarini asarda g'oyat katta dadillik va o'ziga xos qat'iylik bilan teran mazmun, serjilo badiiy bo'yoqlarda bayon etadi" [... 354].

1982-yilda nashr ettirilgan "O'zbek nasri tarixidan" kollektiv monografiyasiga kiritilgan T.G'afurjonovanning "Alisher Navoiy ijodiyoti va nasr problemalari" nomli yirik maqolasi [25. 36-59] ham Navoiy nasri, shu jumladan "Mahbub ul-qulub" asarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etdi: "Navoiyning ijtimoiy-siyosiy va didaktik xarakterdagi "Mahbub ul-qulub" asari uning ijodiyotida nasrning eng yorqin namunasi sanalib, unda badiiy nasrga xos element va komponentlardan keng foydalanilgan" [25. 47]. Tadqiqotchi Navoiyning ijtimoiy qarashlari haqida fikr yuritir ekan, riyokor shayxlar haqidagi faslni tahlil uchun tanlaydi.

“Mahbub ul-qulub” asari turkiy nasrning eng muhim xususiyatlaridan bo’lgan “saj” usulini tadqiq etishda, Navoiy ijodi va umuman o’zbek adabiyotida satiraning shakllanishi va taraqqiyotiga doir ilmiy ishlarda ham asosiy manbalardan biri vazifasini bajargan. Jumladan, taniqli adabiyotshunos B.Sarimsoqovning “O’zbek adabiyotida saj” [22], yana bir ustoz olimlardan A.Abdug’afurovning “Navoiy ijodida satira” [5] kabi monografiyalarda ham bu manbaga bevosita murojaat etiladi. Xususan, A.Abdug’afurov “Mahbub ul-qulub”ning “Riyoysi shayxlar zikrida”gi faslini: Navoiy ijodidagi prozaik satiraning eng yaxshi namunasidir”, deya baholaydi [5. 153].

“Mahbub ul-qulub” asari Alisher Navoiy yaratgan adabiy tilning xususiyatlarini aks ettiruvchi qimmatli manba sifatida ham XX asrda ilmiy jamoatchilik e’tiborida bo’ldi. Rus olimi A.K.Borovkov, o’zbek olimlaridan S.Mutallibov, E.Umarov, X.Doniyorov, J.Hamdorov, B.Yo’ldoshev kabilarning til tarixiga oid ko’plab ilmiy maqola va risolalarida “Mahbub ul-qulub” asaridagi matnlar asosida fikr yuritilganligiga guvoh bo’lamiz. Jumladan frazeologiyaga oid ko’plab tadqiqotlar yaratgan ustozimiz B.Yo’ldoshevning 1981-yilda chop etilgan “Alisher Navoiy prozasida frazeologizmlar” nomli maqolalarida quyidagilarni o’qishimiz mumkin: “Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarida qo’llangan quyidagi ayrim maqol tipidagi frazeologizmlar hozirgi kunda ham ishlatilib kelinmoqda: “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz”, “So’zi hisobsiz – o’zi ihtibossiz”, “Oz demak hikmatga bois va oz yemak sihatga bois”, “Og’izga kelganin demak nodon ishi va olliga kelganni yemak hayvon ishi”, “Bilmaganin so’rab o’rgangan olim va orlanib so’ramagan o’ziga zolim...” [13. 97].

“Mahbub ul-qulub”da maqol tipidagi frazeologizmlar yuqoridagidek, aynan qo’llanish bilan birga, asar g’oyasi va temasiga muvofiq holda ayrim o’zgarishlarga ham uchraydi. Masalan, xalq og’zaki so’zlashuv nutqida “Sulaymon o’ldi, devlar qutuldi”, “Sulaymon taxti quladi” kabi iboralar mavjud. Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub”ning beshinchi faslida Osaf singari vazirlar haqida so’z yuritib “Sulaymon taxti barboddur” iborasini qo’llaydi: “Dahr elida birovki Osaf nihoddur, bilgaykim, Sulaymon taxti barboddur” [13. 97].

“...ovozasi yeti falakdan oshmoq” frazeologizmi Alisher Navoiy uchun nazm gulistonining sayroqi qushlari, ya’ni **shoirnlarni madh etish vositasi** bo’lib xizmat qilgan: “Va yuz mashaqqat bila bir baytkim bog’lashturg’aylar, da’vo ovozasin yeti falakdin oshurg’aylar” [13. 98].

“Mahbub ul-qulub” asari A.Fitrat nashr ettirgan xrestomatiyadan keyin, 1941-yilda chop etilgan “O’zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”ning I tomiga [48. 273-298], 1959-yilda nashr ettirilgan “O’zbek adabiyoti” xrestomatiyasining II tomiga [49. 521-545] qisman kiritildi. Alisher Navoiyning 15 tomlik “Asarlar”i, 13-tomida asar, ayrim qisqartirishlar bilan nashr ettirildi [34].

“Mahbub ul-qulub” asarini matnshunoslik, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va boshqa sohalarga oid manba nuqtai nazardan tadqiq etish ishlari istiqloldan keyin yanada jonlandi, yangi-yangi yo’nalish va usullar bilan boyidi, hatto butkul yangicha mohiyat kasb etdi, deb aytish ham mumkin.

Bu borada, ayniqsa, Navoiyning tasavvufiy qarashlarini tadqiq etishga kirishgan deyarli barcha olimlar (N.Komilov, I.Haqqul, S.Olimov, R.Vohidov, Sh.Hayitov va boshq.) “Mahbub ul-qulub”ga, undagi “Ishq” hamda ijod ahli haqidagi fasllarga murojaat etishdi. Jumladan, tasavvufshunos olimlarning ustozlari N.Komilov “Farhod va Shirin” va “Layli va Majnun” asarlarining tasavvufiy mohiyati mamlakatimizda ilk marotaba alohida tadqiq etilgan “Suqrot – komil inson timsoli” [14. 203-214] hamda “Ishq otashining samandari” [14. 214-229] nomli maqolalarida Navoiyning “Ishq” konsepsiyasini asosan yuqoridagi manba – “Mahbub ul-qulub”dagi maxsus fasl asosida sharhlaydi. Darhaqiqat, “Mahbub ul-qulub”ning ikkinchi bob o’n uchinchi fasli “Ishq zikrida” bo’lib [35. 65-71] hajman eng katta fasllardan biridir. Unda buyuk mutafakkir ishqni uch martabaga: avom, xos va siddiqlar ishq martabalariga ajratadi. N.Komilov ishqning birinchi va ikkinchi martabalar haqida fikr yuritib yozadilar: “Mahbub ul-qulub”da Navoiy ishqning “marotib”lari borligini aytib, uning uch turini qayd etadi: nafsoniy ishq (“avom ishq”), “majoziy ishq” (“xavos” – xos kishilar ishq) va ilohiy ishq (avliyolar ishq). Bu o’rinda Navoiyning “ishq marotibdur” degan so’ziga diqqat qilishingizni istardik, zero, “marotib” (martabalar) so’zi tariqat ahlining istilohlaridan bo’lib, u solikning ruhiy-ma’naviy

taraqqiyot darajasini belgilaydi. Demak, ishq insoniy kamolot darajasini ko'rsatuvchi fazilat. Bundan tashqari, avom va xos tushunchalari ham tariqatga bog'lanadi" [14. 216]. "Navoiy mazkur istilohni (xos ishq) ko'ngil amriga amal qilish, Tangri yo'lida zahmat chekuvchi dili va tili Haq yodidan bo'shamaydigan chin so'fiylarga nisbatan qo'llagan. Bu insonlarning ko'ngil ko'zgusi dunyoviy hirsu havas g'uboridan tozalangani sababli "pok ko'zni pok nazar bila pok yuzga" solib, "pok mazhar", ya'ni ilohiy jamol aks etgan alohida odamlarni sevish "vositasi bila"... mahbubi haqiqiy (ya'ni, Xudo) jamolidan bahra olmoqqa musharrafidirlar" [14. 217].

Bu borada, ayniqsa, Sh.Hayitovning ilmiy ishlari e'tiborga molik. Olimning "Mahbub ul-qulub"da tasavvuf jilolari" [29] hamda "Barkamol inson orzusi" [30] nomli monografiyalarida "Mahbub ul-qulub"dagi hikmatlarning irfoniy mohiyatiga oid e'tiborli fikr-mulohazalar bildirilgan.

"O'zbek adabiyoti tarixi"ga doir nashr ettirilgan o'quv adabiyotlarida "Mahbub ul-qulub" asariga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, akademik B.N.Valixovning "O'zbek adabiyoti tarixi" o'quv qo'llanmalari, 2-kitobida [10. 116-127], buxorolik olimlar professor R.Vohidov va dotsent H.Eshonqulovning "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" nomli O'quv qo'llanmalarida [12. 431-438] "Mahbub ul-qulub" haqida alohida mavzu kiritilgan. Eng muhimi, asar ilk marotaba to'liq holda Navoiyning "Mukammal asarlar to'plami" 14-tomida (Toshkent: Fan, 1998. 5-130-betlar) kitobxonlar hukmiga havola etildi. Yangi asrda esa, bu xayrli ish 2010 va 2012-yillarda o'n tomlik nashr tarkibida qayta amalga oshirildi.

Yuqorida keltirilgan umumiy tavsifdan ma'lum bo'ladiki, "Mahbub ul-qulub" asarini turli nuqtai nazardan tadqiq etish ishlari bir yarim asrdan beri davom etib kelayotgan jarayon bo'lib, har bir davr adabiyotshunosligi, uning vakillari bo'lgan olimlarning o'z yutuq va kamchiliklari mavjud. Bular ba'zan hukmron mafkura va uning cheklovlari bilan bog'liq bo'lsa, ba'zan asarning mukammal matni yaratilmaganligi bilan, ba'zan esa oddiy e'tiborsizlik bilan bog'liqdir. Masalan yuqorida tilga olingan B.Yo'ldoshevning maqolalarida "...ovozasi yeti falakdan oshmoq" iborasi **shoirlarni madh etish vositasi** bo'lib xizmat qilganligi qayd etiladi: "Va yuz mashaqqat bila bir baytkim bog'lashturg'aylar, da'vo ovozasin yeti

falakdin oshurg'aylar" [13. 98]. Vaholanki, parchada yuz mashaqqat bilan bir aytsa ham o'zini buyuk shoir deb da'vo qiladiganlar tanqid qilingan. Yoki N.Komilovning maqolalarida "ishq marotibdur" tarzida keltirilgan birikma aslida Navoiy asarida "**ishqqa** marotibdur" shaklida keladi.

"Mahbub ul-qulub" asari tadqiqiga bag'ishlangan barcha ilmiy ishlarda asar tarkibidagi she'riy matnlar yoki parchalarga ham u yoki bu darajada murojaat etiladi. Biroq bu murojaatlar asosan misol keltirish shaklida namoyon bo'ladi. Akad. B.Valixo'jayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" o'quv qo'llanmalari I kitobida ilk marotaba "Navoiyning nasriy asarlaridagi she'riy parchalar" [10. 127-140] nomida alohida mavzu kiritilgan. Unda "Mahbub ul-qulub" asari tarkibidagi ayrim she'riy matnlarning janr va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar va fikr-mulohazalar ham bildirilgan.

1.2. Alisher Navoiyning nasriy merosi va "Mahbub ul-qulub" asari kompozitsiyasi. Nizomiddin Amir Alisher Navoiy – Foniylar buyuk shoir, ulkan dostonnavis bo'lish bilan bir qatorda o'sha davrdagi nasr an'analari yangicha davom ettirgan, turkiy – o'zbek ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-axloqiy va badiiy nasrini nodir yodgorliklar bilan boyitgan adib hamdir.

Alisher Navoiyning nasriy asarlari mavzu, janr va badiiyati jihatidan rang-barangdir. Bu asarlar qanday mavzuga bag'ishlanganliklaridan yoki qaysi janrga mansubliklaridan qat'i nazar o'sha davrdagi nasrning ilmiy-badiiy, estetik talab va mezonlariga to'la-to'kis muvofiq bo'lib, Navoiyga qadar bo'lgan turkiy-o'zbek nasrini har jihatdan boyitdi.

Alisher Navoiyning nasriy asarlari asosan o'zbek tilida yozilgan bo'lib, «Risolai muammo» va «Devoni Foniylar»dagi nasriy debocha fors-tojik tilidadir.

Alisher Navoiyning nasriy merosi turli nuqtai nazardan tasnif va tahlil etiladi. Akademik B.Valixo'jayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" o'quv qo'llanmalarida Navoiyning nasriy asarlari quyidagicha tasnif etiladi:

I. Risolalar:

- 1.«Mezon ul-avzon» - Adabiyot nazariyasi, xususan aruz ilmi aruz masalalariga bag'ishlangan asar.
- 2.«Risolai muammo» – muammo janriga oid fors-tojik tilidagi ilmiy asar.
- 3.«Muhokamat ul-lug'atayn» - turkiy-o'zbek va fors-tojik tillarini qiyosiy o'rganish vositasida turkiy-o'zbek tilining imkoniyatlari sharhlangan asar.
- 4.«Sab'at ul-abhor» – arab tili lug'ati.
- 5.«Vaqfiya» – vaqf yerlaridan foydalanish va madrasa ta'limiga oid asar.

II. Tazkiralar:

1. «Tarixi anbiyo va hukamo» - «Payg'ambarlar va faylasuflar tarixi».
2. «Tarixi muluki Ajam» - «Ajam podshohlari tarixi».
3. «Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat» - «Muhabbat shabadalari va do'stlikning xushbuy hidlari».
4. «Majolis un-nafois» - «Nafosat ahlining majlislari».

III. Holot yoki manoqib – holotlar:

1. «Holoti Sayyid Hasan Ardasher».
2. «Holoti Pahlavon Muhammad».
3. «Xamsat ul-mutahayyirin».

IV. Maqolat-noma:


1. «Mahbub ul-qulub».
2. «Munojot».

V. «Munshaot» yoki maktublar.¹⁷

Yuqoridagi tasnifdan ma'lum bo'ladiki, mo'tabar ustoz olim nasriy asarlarning yozilish uslubi va undan ko'zlangan maqsadni asosiy mezon qilib olganlar.

Filologiya fanlari nomzodi S.Tohirovning "Ozbek mumtoz adabiyoti tarixi" fanidan tuzgan o'quv-uslubiy majmuasida ham asosan yuqoridagi tasnifga tayangan holda Alisher Navoiyning nasriy asarlari bir oz o'zgacha tarzda tasnif etilganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur tasnif slayd shaklida bo'lganligi uchun uni aynan keltirishni ma'qul ko'rdik.

¹⁷ Valixo'jayev B. O'zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. – Samarqand: Sam DU nashri, 2002. 87-115-betlar;



Alisher Navoiyning nasriy asarlari orasida “Mahbub ul-qulub” (Ko‘ngillar sevgilisi) alohida ahamiyat kasb etadi.

Asar 1500-yilda (hijriy 906) yozilgan. Asarning yozilish tarixi quyidagi ruboiyda o‘z ifodasini topgan:

Bu nomag‘akim, lisonim o‘ldi qoyil,
Kilkim tili har nav’ el ishiga noqil.
Tarixi chu «xush» lafzidin o‘ldi hosil
Har kim o‘qusa, Iloho, o‘lg‘ay xushdil. [35. 130]

Uchinchi misrada qo‘llangan «Xush» so‘zi tarix moddasi bo‘lib, arab yozuvida uchta harf – خ (“Xe”), و (“Vov”) va ش (“Shin”) harflari bilan yoziladi. Abjad hisobida “Xe” - 600, “Vov” - 6 va “Shin” – 300 raqamlarini ifodalaydi. Ularning yig‘indisi esa 906 ni ifoda etadiki, bu hijriy sana milodiy 1500-yilga tengdir.

«Mahbub ul-qulub» kirish, uch qism va xotimadan iborat. «Kirish»da asarning yozilish sabablari nihoyatda aniq yoritilgan. Ma’lumki, bu asarni yozayotganda muallif hijriy hisobda 62 yoshda (Navoiyning tug‘ilgan yili hijriy hisobda 844) edi. Bu umr davomida u qancha-qancha lavozimu mansablarni ko‘rdi, ne-ne ishlarni amalga oshirmadi, yuksak mavqedagi badiiy-ilmiy asarlar yaratdi, ham shaxs hamda mutafakkir, shoir, nosir sifatida katta hurmat va ehtiromlarga sazovor bo‘ldi. Shunday bo‘lsa-da, «Mahbub ul-qulub»ning «Kirish» qismida o‘zi haqida shunday yozadi: «Fuqaroning gadoyi, g‘aroyib masturalarining chehrakushoyi al-faqir ul-haqir Alisher al-mulaqqab bin-Navoyi (g‘affara zunubihi va sattara uyubihi – Alloh taolo uning gunohlarini kechib, ayblarini bekitsin) mundoq arz qilur va adosin o‘ziga farz bilur...» [35. 8].

Bunda juda katta ma’no va mazmun bor, Alisher Navoiy umri davomida orttirgan hayotiy tajribalardan chiqargan nihoyatda teran falsafiy xulosa bor. Bu xulosa shundan iboratki, inson hayoti davomida qanday lavozimu mansab, boylik va hashamatga ega bo‘lmasin, baribir u «al-faqir ul-haqir» - oddiy inson – bandadir. Bas

shunday ekan, Alisher Navoiyning yozishicha, «faqirning (Alisher Navoiyning) tajribasi alargʻa bas boʻlgʻay». Toki bu tajribalar kitobni oʻqiganlarga saboq boʻlib, ular oʻz hayotlari, faoliyatlarini shundan kelib chiqib tashkil etsinlar. Bunda Alisher Navoiy ulugʻ bir murabbiy – kelgusi avlodlarga murojaat qilib, ularning komil inson boʻlishlarini istagan buyuk siymo sifatida yaqqol gavdalanib turadi. Demak, «Mahbub ul-qulub» - kelajakning barkamol avlodlarini etishtirishni nazarda tutib yozilgan dastur ul-amal mohiyatiga ega boʻlgan asardir.

Alisher Navoiyning oʻzi ham «kirish» qismini quyidagi soʻzlar bilan yakunlangani bu fikrlarni tasdiqlaydi: «Umid ulkim, oʻqugʻuvchilar diqqat va eʼtibor koʻzi bila nazar solgʻaylar va har qaysi oʻz fahmu idroklariga koʻra bahra olgʻaylar. Bitiguvchiga (yaʼni Alisher Navoiyga) ham bir duo bila bahra etkurgaylar va ruhini ul duo futuhi bila sevundurgaylar» [35. 11].

Alisher Navoiy «faqirning tajribasi» deb aytganda nimalarni nazarda tutgan edi? Bu savolga «Mahbub ul-qulub»ning birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarida bayon etilgan mulohazalar javob boʻladi.

Asarning birinchi qismi «Xaloyiq ahvol va afʼol va aqvolining kayfiyati» (turli tabaqa kishilarining ahvoli, feʼlu atvori va soʻzlari kayfiyati) deb atalib, qirq fasl (boʻlim)dan iborat.

Mazkur qismda jamiyatdagi turli toifaga mansub kishilar fazilatlar va eng muhimi, ularning qanday boʻlishlari kerak va qanday boʻlmasliklari darkor kabi masalalardan bahs yuritilgan. Shunisi ham borki, har bir toifa haqida soʻz borar ekan, ular umumlashtirilgan tarzda tilga olinadilar. Jumladan, odil podshoh, islompanoh beklar, zolim podshoh, vazirlar, askarboshilar, shayx ul-islom, qozilar, muftilar, mudarrislar, tabiblar, shoirlar, kotiblar, maktab oʻqituvchisi, imomlar, hofizlar, mutrib va mugʻanniylar, qissaxonlar, voizlar, munajjimlar, tijorat ahli, olib sotarlar, kosiblar, mirshablar, dehqonlar, yatim, benavo, gadolar, qushchilar, navkarlar, kadxudo va xotinlar, firibgar shayxlar, rindlar, darveshlar va boshqalar. Koʻrinadiki, Alisher Navoiy oʻsha davrdagi ijtimoiy guruhlarining barchasi, yaʼni umri davomida turli xilda bevosita muloqotda boʻlganlar hakida oʻz kuzatishlari, boshqacha qilib

aytganda, tajribalari natijalarini bayon etgan. Bu bayonda Alisher Navoiy istaganlar va istamaganlar o'z ifodasini topgan.

Alisher Navoiy istaganlar – odil shoh, rahm-shafqatli amiru amaldor, bilimdon mudarris, tabiblar; ishbilarmon va insof-diyonatli tojirlar, xalqning rizq-ro'zini etishtiruvchi dehqonlar, qo'li gul hunarmandlar... Shuning uchun Alisher Navoiy odil podshohga bag'ishlagan birinchi faslni shunday boshlaydi.

«Odilu oqil podshoh ibodullohga zillilloh... Odil podshoh Haqdin xaloyiqqa rahmatdur va mamolikka mujibi amniyat va rafohiyat...» [35. 12]. Faslning davomida podshohning odilligi tufayli mamlakatda har jihatda obodonlik, tinchlik-osoyishtalik, farovonlik bo'lajagi nihoyat ko'tarinki ruhda bayon etilib, oxirida zamon podshohi Sulton Husayn Boyqaro ana shunday fazilatlariga ega degan mazmundagi masnaviy keltirilib, u shunday yakunlanadi:

Kelib ayni insonu insoni ayn,
Jahon vorisi Shoh Sulton Husayn.

Ki to bo'lsa gardung'a davvorliq,
Anga boqiy o'lsun jahondorliq.

Xaloyiqqa bu shahdin o'lsun nishot,
Dame bo'lmasun xoli andin bisot. [35. 13]

Ikkinchi tomondan, xalqning rizqu ro'zini ta'minlovchi, podshohlar xazinasini to'ldiruvchi dehqonlar haqida shunday iliq va samimiy yoziladiki, bular Alisher Navoiyning bu toifaga nisbatan bo'lgan hurmati va ehtiromini ham ifoda etadi. Alisher Navoiy tasviriga ko'ra, bu toifa boshqalarga namuna va ibrat bo'luvchi toifadir, chunki u faqat odamlarni emas, balki olamdagi barcha jonli mavjudotni (qushlar, hayvonlar...) o'z mehnati natijasidan (xususan, g'allachilik misolida) bahramand etadi:

«Dehqonki dona sochar, erni yormoq bila rizq yo‘lin ochar... Dehqonki, tuzluk bila dona sochar, Haq biriga etti yuz eshigin ochar. Sochqon dona ko‘karguncha, o‘rub xirmon qilib, mahsulini ko‘targuncha qurtu qush andin bahramand va dasht vuhushi (vahshiy hayvonlari) aning bila xursand. Mo‘rlar (cho‘molilar) uyi andin obod va go‘rlar (dasht hayvoni) xotiri aning bila shod. Kabo‘tarlarg‘a andin mastliq, to‘rg‘aylarg‘a andin nishotg‘a (xursandchilikka) hamdastliq. O‘roqchig‘a andin ro‘ziy, boshqochining yorub andin ko‘zi. Barzagarga (dehqon, yerga dona sepuchiga) andin kom (murod) hosil, pushtakashg‘a (o‘rilgan hosilni orqasiga yuklab tashuvchiga) andin murod hosil. Gado andin to‘q, kadxudo (uy boshlig‘i) to‘qlug‘i ham andin- o‘q. Musofirg‘a andin taom, mujovirg‘a andin kom. Itmakchi (navvoy) tanuri andin qiziq, allof bozori, andin iliq...» [35. 37].

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalar dehqonning ijtimoiy hayotda tutgan mavqei va uning jamiyat oldidagi ulkan mas‘uliyatidan guvohlik beradi. Demak, Alisher Navoiy ana shunday yuksak maqom va mas‘uliyatga ega bo‘lgan dehqonlarni hamisha ardoqlash lozimligini nazarda tutib, bu faslni quyidagi qit‘a bilan yakunlaydi:

Kimki dehqonlig‘ ayladi pesha,
Dag‘i non bermak o‘ldi anga shior.

Bo‘yla kimsa uluvvi rif‘atdin,
Odam o‘lmasa, odamiy xud bor.

Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asari haqida gapirilganda uning birinchi qismidagi 16-fasl, ya‘ni shoirlarga bag‘ishlangan fasl ham ko‘p tilga olinadi. Bu faslda XII-XV asrlarda faoliyat ko‘rsatgan forsiygo‘y shoirlar (Faridudin Attordan Abdurahmon Jomiygacha) ijodiy uslublari jihatdan nihoyat mohirona tarzda guruhlashtirilgan. Bu jarayonda Alisher Navoiy adabiyot tarixini nazariy yo‘nalishda idrok etuvchi adabiyotshunos sifatida ham namoyon bo‘ladi. Mashhur navoiyshunos olim A.Hayitmetov 1959 yilda nashr ettirilgan “Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy

qarashlari” nomli monografiyasida “Mahbub ul qulub” asariga murojaat etib, “Nazm gulistonining xushnag’ma qushlari zikrida”gi fasl haqida alohida to’xtaladi.

Alisher Navoiy «Mahbub ul-qulub» ning jamiyatdagi toifalarga bag‘ishlangan birinchi qismida adolatsiz, firebgar, yolg‘onchi, yomon axloqli kimki bo‘lsa: podshohmi, vazirmi, mudarrismi, hunarmandmi – qaysi toifadan bo‘lishidan qat’i nazar, qattiq tanqid ostiga oladi, ularni fosh etadi. Bu jarayonda Alisher Navoiy so‘zlari o‘tkir tig‘ mavqeidadir. Shuning uchun zolim, johil, fisqu fasodchi podshohlar haqidagi to‘rtinchi faslni shunday yakunlaydi:

«Tengri mundoq balolarni adam chohidin vujud taxtgohiga kelturmasun va yo‘qluq zindonidin borlig‘ shahristonig‘a etkurmasun».

Nodon tabiblar (15 fasl) haqida: «Omiy tabibkim, erur shogirdi jallod»; xato ko‘chiruvchi kotiblar (17-fasl) haqida: «Yamon kotib manzili qalamdonidek choh aro bo‘lsun, qalamidek boshi yaro va yuzi qaro»; olib-sotar savdogarlar (27-fasl) haqida:

Bu xayl odam emaslar, yaxshi boqsang,
Erur suding alardin gar yiroqsan.

«Mahbub ul-qulub»ning ijtimoiy toifalarga bag‘ishlangan qismida Alisher Navoiyning ijtimoiy qarashlari, davlatchilik va qonunchilik masalalariga doir mulohazalari ham bayon etilgan. Shu jihatdan podshoh va vaziru amaldorlar haqidagi fasllarda davlatchilikning qanday bo‘lishi kerakligi haqida gapirilgan bo‘lsa, shayx ul-islom, mufti, qozilarga bag‘ishlangan fasllarda qonunchilikning ustivor bo‘lishi shart-sharoitlari, talablari navoiyona tushuncha asosida bayon etilgan. Alisher Navoiyning qozilar haqida (12-fasl) so‘z yuritganda «(qozining) mahkamasi maxzani ulumi shar’iya va hukm qilurida oshnoyu begona anga ala-s-saviya (ya’ni teng, barobar)», - deb yozganida qonunchilikning hamma uchun teng, barobarligi ustivor bo‘lishi nazarda tutilgan. Qonunchilikning jamiyat hayotida ustivor bo‘lishi kerakligi haqidagi mazkur fikrlar hozirgi zamon qarashlari bilan hamohangligi jihatidan diqqatga sazovordir.

Demak, birinchi qismda bayon etilgan mulohazalar Alisher Navoiy hayotiy tajribalarining umumlashmasi bo‘lib, ularda odamlarni ogohlik va saboq olishga, Vatan, xalq, odamiyat uchun xizmat qilish uchun komillikka erishish, komil inson bo‘lish shart ekanligi uqtiriladi.

Asarning ikkinchi bo‘limida ana shu – komillikka erishish masalalari tasavvufiy qarashlar tamoyilida ko‘zdan kechiriladi. Bu bilan birinchi va ikkinchi bo‘limlarning ma’naviy jihatdan bir-biri bilan bog‘liligi maydonga keladi.

«Mahbub ul-qulub»ning ikkinchi qismi yaxshi va yomon xulqlarga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘n bobdan iboratdir. Unda tavba (1-bob), zuhd (2-bob), tavakkul (3-bob), qanoat (4-bob), sabr (5-bob), tavozu’ (kamtarlik) va adab (6-bob), zikr (7-bob), tavajjuh (butun vujudi bilan Haqqa yuz tutmoq) (8-bob), rizo (9-bob), ishq (10-bob) mavzulari tasavvufiy yo‘nalishda yoritilgan. Agar birinchi qismda Alisher Navoiyning ijtimoiy qarashlari o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, ikkinchi bo‘limda esa ulug‘ mutafakkirning falsafiy – tasavvufiy qarashlari bayon etilgan. Inson va uning barkamollikka erishish tamoyillari bu qarashlarning markazini tashkil etadi.

Bu qism tuzilish jihatidan birinchi qismdan farq qiladi. Bu farq shundan iboratki, har bir axloqiy masala nazariy jihatdan umumlashma tarzda bayon etilgandan so‘ng uning isboti uchun bir hikoyat keltiriladi. Masalan, tavba bobida Shayx Abdulloh ibni Muborak (vaf. 787-788 melodiy yil, Iroqlik shayx), Zuhd bobida mavlono Shamsiddin Muiddi Ucha (XV asr sufiylaridan), tavozu’ va adab bobida Mudbir va Muqbil; zikr bobida Xoja Abdullohi Ansoriy (XI asr), ishq bobida Majnun haqidagi hikoyalarning keltirilishi. Bu hol «Xamsa»ning «Hayrat ul-abrori»dagi asosiy maqolotlarning tuzilishini eslatadi.

«Mahbub ul-qulub»ning uchinchi qismi turli foidalar va masallar deb atalib, unda 127 tanbeh keltirilgan. Uchinchi qismdagi tanbehlar kitobning birinchi va ikkinchi qismlarida bayon etilgan ijtimoiy-falsafiy qarashlarni hikmatli so‘zlar darajasidagi axloqiy-tarbiyaviy gaplarda yanada kengaytiradi, umumlashtiradi. Shu jihatdan uchinchi qism Alisher Navoiyning hikmatli so‘z va maqollari to‘plangan hamda asarni o‘ziga xos tarzda yakunlagan qismdir.

Quyida uchinchi qismdan ayrim namunalar keltiramiz:

Ko‘p demak - so‘zga mag‘rurluq va ko‘p yemak - nafsg‘a ma‘murluq;

Insoniyat bog‘ining dilpisandroq shajari ehsondur va odamiyliq konining arjmandroq gavhari ham ehsondur;

Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim va orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim;

Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur;

Hilmni (kamtarlik va yumshoqlikni) havodis (hodisalar)daryosida kishilik kemasining langari desa bo‘lur va insoniyat mezonni toshig‘a nisbat qilsa bo‘lur;

Valine‘matqa ayb ravo ko‘rguchi piriga murtad (rad etilgan) muriddur va atosig‘a haromzoda o‘g‘il;

Har kimki, birov bila yordur yoki yorlig‘ da‘viysi bordur, kerakkim, o‘ziga ravo tutmog‘onni yorig‘a ravo tutmasa, ko‘p nimakim, o‘ziga ham ravo tutsa, anga tutmasa;

Shohdin ham lutf marg‘ubdur, ham siyosat matlubdur. Ammo har biri o‘z mahallida xo‘bdur;

Tilga ixtiyorsiz – elga e‘tiborsiz;

Salotin dargohidin yiroq va xavoqin bazmgohidin qiroq, balki tegrasiga yovumag‘on yaxshiroq;

Ko‘ngul maxzanining qufli til va ul maxzanning kalidin so‘z bil;

Chin so‘z – mo‘‘tabar, yaxshi so‘z- muxtasar;

Xiradmand uldurkim, yolg‘on demas, ammo barcha chin deguluk ham emas;

G‘iybat deguvchi – najosat yeguvchi. Afyuniyu bangi-odamiylar nangi;

Er kishiga zebu ziynat – hikmatu donishdur.

Yaxshi kiymak birla xotinlarg‘a oroyishdur;

Xo‘b yirtuq to‘n bila ham xo‘b, gul yamog‘liq chaponi bila mahbub;

Umrni g‘animat bil, sihat va amniyatqa shukr qil va boshqalar.

Ko‘rinadiki, Alisher Navoiyning hayotiy tajribasi bo‘lmish bu o‘gitlar hamisha insoniylik va eng go‘zal odamiylik fazilatlarini, hozirda esa milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishda xizmat qiladi.

«Mahbub ul-qulub» Alisher Navoiyning boshqa nasriy asarlari kabi o‘sha davr nasrining badiiy xususiyatlari asosida yozilgan. Shuning uchun unda saj’ va turli

badiiy san'atlar, hikoya va rivoyatlar, turli iqtiboslar, she'riy parchalar mohirlik bilan ishlatilgan.

Ayrim misollarni keltiramiz:

«Mahbub ul-qulub» asari badiiyatini ta'minlashda eng muhim vositalardan biri saj' usuludur. Bu haqda alohida tadqiqot olib borgan B.Sarimsoqovning guvohlik berishlaricha, Navoiy asarda saj'ning bir necha xil turlaridan mohirona foydalangan. Masalan,

1. Saj'i mutavozi – ohangdosh, qofiyadosh vat eng hijoli so'zlarning ishlatilishi yoki bo'liq saj' shakli:

So'zida parishonliq, o'zida pushaymonliq.

Oz demak hikmatga bois va oz yemak sihatqa bois.

Og'ziga kelganni demak nodon ishi va oldiga kelganni yemak hayvon ishi... fuqaro rizqi andin vofiy, g'urabo quti andin kofiy.

2. Saj'i mutarraf – ohangdosh, lekin hijolari teng bo'lmagan so'zlarning kelishi:

Ishq axtaredur **duraxshanda**, bashariyat ko'zi nuri va **safosi** andin va gavharehur **raxshanda**, insoniyat tojining zeb va **bahosi** andin...

3. Saj'i mutavozin – hijolar miqdori teng, ma'lum darajada ohangdoshlikka ega, lekin shakli o'zgacha bo'lgan so'zlarning ishlatilishi:

«Nomurodlarning **panohi** va podshohning **davlatxohi**. Shohg'a dunyoda chin so'z **deguvchi** va aning oxirati g'amin **yeguvchi**. Yomonlar andin **haroson** va yaxshilar dushvorlig'i **oson**...».

“Mahbub ul-qulub” asarida bundan tashqari tashbeh, tazod, sifatlash, mubolag'a, talmeh va boshqa ko'plab badiiy san'atlardan ham ustalik bilan foydalanilgan. Jumladan,

Tashbeh – o'xshatish:

«Zahr berib bemor o'lturguvchi tabib – bularning (vazirlarning) holiga mushobehdur va qarib...Bular (vazirlar) jumlası chiyonlar, xaloyiqqa etkurur ziyonlar. Kilklari (qalamlari) no'gi aqrab (chiyon) neshi, raiyat jonig'a ul nesh tashvishi».

Qozi islom binosig‘a arkondur».

«Ilm o‘qub amal qilmag‘on, erni shiyor qilib (haydab), tuxum solmog‘ong‘a o‘xshar».

Sifatlash:

«Rishvaxo‘r muftiylar - (qozi) qoshida mankub va hiylakor vakillar-ollida ma‘yub».

Mubolag‘a:

«Omiy qoziki may ichkay - o‘lturgulukdur va do‘zax o‘tiga etmasdin burun kuydurgulukdur».

Tazod:

«**Mast**lar orasida bir **hushyor** - **hushyor**lar orasida bir **mast** hukmi bor».

«**Zuhal** biyik maqom bila **Mehri xovariy** bo‘lmas, **dev** bihisht hullasin kiygan bila **pari** bo‘lmas».

Xulosa qilib aytganda, «Mahbub ul-qulub» Alisher Navoiy nasriy asarlarini yakunlab, bu sohadagi eng yaxshi tajribalarni o‘zida mujassam etgan nodir shohasardir. Unda buyuk mutafakkirning hayotiy tajribalari va xulosalari nihoyatda go‘zal va ta‘sirli tarzda o‘z ifodasini topdi. Asar nasrda yozilgan bo‘lsa-da, bir qator jihatlar, nutqni bezaydigan badiiy tasvir vositalari uni she‘riyatga ham yaqinlashtiradi. Xususan, saj‘, odatda she‘riy nutqda ko‘proq qo‘llanadigan badiiy san‘atlar shular jumlasidandir.

Bitiruv malakaviy ishining dastlabki bobi davomida o‘rganilgan masalalar va materialar asosida quyidagi qisqacha xulosalarni bildirish mumkin.

Alisher Navoiyning nasriy merosi, xususan, “Mahbub ul-qulub” asarini turli nuqtai nazardan tadqiq etish ishlari uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan jarayon bo‘lib bu jarayonda nafaqat o‘zbek adabiyotshunoslari, balki tojik, rus va ko‘plab boshqa xorijiy adabiyotshunoslik vakillari ham faol ishtirok etganligi quvonarli holder. Biroq qayd etish kerakki, Har bir davr adabiyotshunosligi vakillarining bu borada o‘z yutuq va kamchiliklari mavjud. Bular ba‘zan hukmron mafkura va uning cheklovlari bilan bog‘liq bo‘lsa, ba‘zan asarning mukammal matni yaratilmaganligi bilan, ba‘zan esa oddiy e‘tiborsizlik bilan bog‘liqdir.

Alisher Navoiyning nasriy asarlari mavzu, janr va badiiyati jihatidan rang-barangdir. Bu asarlar qanday mavzuga bag'ishlanganliklaridan yoki qaysi janrga mansubliklaridan qat'i nazar o'sha davrdagi nasrning ilmiy-badiiy, estetik talab va mezonlariga to'la-to'kis muvofiq bo'lib, Navoiyga qadar bo'lgan turkiy-o'zbek nasrini har jihatdan boyitdi. Alisher Navoiyning nasriy merosi turli nuqtai nazardan tasnif va tahlil etiladi. Bitiruv malakaviy ishida akademik B.Valixo'jayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" o'quv qo'llanmalarida hamda S.Tohirovning "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" fanidan tuzgan o'quv-uslubiy majmuasidagi Navoiyning nasriy asarlari tasnifiga murojaat etildi.

Alisher Navoiyning nasriy asarlari orasida "Mahbub ul-qulub" (Ko'ngillar sevgilisi) alohida ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, davlatchilik va qonunchilik masalalariga doir mulohazalari bayon etilgan mazkur asar odamlarni ogohlik va saboq olishga, Vatan, xalq, odamiyat uchun xizmat qilish uchun komillikka erishish, komil inson bo'lish shart ekanligini uqtiriladi. Shu bilan birga, ana shu – komillikka erishishning yo'l va vositalari, shartlari kabi masalalar tasavvufiy qarashlar negizida ko'zdan kechiriladi.

«Mahbub ul-qulub» Alisher Navoiyning boshqa nasriy asarlari kabi o'sha davr nasrining badiiy xususiyatlarini o'zida mujassam etibgina qolmasdan, ularni yanada rivojlantiradi. Unda saj' usulining turli ko'rinishlari (saj'i mutavozi, saj'i mutarraf, saj'i mutavozin), rang-barang badiiy san'atlar (tashbeh, tazod, sifatlash, mubolag'a, talmeh va bosh.)dan ustalik bilan foydalanilgan, hikoya va rivoyatlar, turli iqtiboslar, she'riy parchalar mohirlik bilan ishlatilgan.

"Mahbub ul-qulub" asari tadqiqiga bag'ishlangan barcha ilmiy ishlarda asar tarkibidagi she'riy matnlar yoki parchalarga ham u yoki bu darajada murojaat etiladi. Biroq bu murojaatlar asosan misol keltirish shaklida namoyon bo'ladi. Akad. B.Valixo'jayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" o'quv qo'llanmalari I kitobida ilk marotaba "Navoiyning nasriy asarlaridagi she'riy parchalar" [10. 127-140] nomida alohida mavzu kiritilgan. Unda "Mahbub ul-qulub" asari tarkibidagi ayrim she'riy matnlarning janr va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar va fikr-mulohazalar bildirilgan.

2-BOB:

“MAHBUB UL-QULUB”DAGI SHE’RIY MATNLAR VA ULARNING BADIY XUSUSIYATLARI

2.1. Alisher Navoiy ijodida nasr va nazm uyg’unligi. Uzoq va boy an’analarga ega bo’lgan fors-tojik va turkiy nasr tarixi o’z taraqqiyoti davomida rang-barang mavzu, mazmun, kompozitsion va badiiy vositalar bilan boyib bordi. Bu borada turkiy badiiy nasrning ilk namunalaridan bo’lgan Rabg’o’ziyning “Qisas ul-anbiyo” asari muhim ahamiyat kasb etadi. Zero mazkur asar turkiy she’riyat taraqqiyotiga ham muhim hissa qo’shish bilan birga, nasr va nazm uyg’unligida asar yaratish an’anasini ham turkiy adabiyotda boshlab berdi. XIV asrda yashab ijod etgan shoir Sayfi Saroyi o’zining “Guliston bit-turkiy” asarida bu an’anani yanada rivojlantirgan bo’lsa, buyuk so’z san’atkori Alisher Navoiy uni kamolot darajasiga yetkazdi.

Alisher Navoiyning deyarli barcha nasriy asarlarida turli shakl va mazmundagi she’riyat namunalari o’z ifodasini topgan. Bu haqda akademik B.Valixo’jayev shunday yozadilar: “Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», «Munshaot», «Vaqfiya», «Tarixi anbiyo va hukamo», «Tarixi muluki Ajam» kabi nasriy asarlarida she’rning turli nav’laridan (masnaviy, ruboiy, qit’a, fard) foydalanilgan. Har bir nasriy asarda bahs yuritilayotgan mavzuga munosib va muvofiq ravishda ana shunday she’rlar keltirilgan. Alisher Navoiyning o‘zbek tilidagi she’riyati o‘rganilayotgan vaqtda bu manba’lardagilar ham nazarda tutilmog‘i ma’qul”.¹⁸

Alisher Navoiyning nasriy asarlarida keltirilgan she’riy matnlarni turli nuqtai nazardan tasnif qilish mumkin. Jumladan:

1. She’riy matnning muallifi yoki manbaiga ko’ra:

- biron bir shoir, mutafakkir, mutasavvuf, davlar arbobi ijodidan olingan she’r namunasi (asosan tazkiralardagi she’riyat namunalari);
- bevosita Alisher Navoiy ijodiga mansub bo’lgan she’rlar;

¹⁸ Valixo’jayev B. Mumtoz siymolar. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2002. 90-bet.

- biron bir hikmatning Navoiy tomonidan qilingan she'riy ifodasi ("Tarixi anbiyo va hukamo"dagi bir qator baytlar).
- 2. **She'riy matnning janriga ko'ra tasnifi** (fard bayt, qit'a, ruboiy, masnaviy, to'rtlik vahokazo).
- 3. **She'riy matnning keltirilish sabablariga ko'ra** (muqaddima yoki xotima o'rnida, tarix moddasi, fikrning she'riy ifodasi, xulosa yoki qissadan hissa, biron bir baytga tatabbu' va hokazo).

Darhaqiqat, Navoiyning turli janrlardagi she'rlari uning nasriy asarlari tarkibida ham mavjud. Bunday she'rlar nasriy bayonni izohlash yoki kuchaytirish, shoir hasbi holini bayon etish, shoh vasfi, asar yozilish vaqti-tarixini ifoda etish kabi mavzularga bag'ishlangan. Bunday holni «Vaqfiya», «Tarixi anbiyo va hukamo», «Tarixi muluki Ajam», «Munshaot», «Mahbub ul-qulub» va boshqa nasriy asarlarda uchratish mumkin.

Quyida ayrim asarlardagi she'riy matnlarni yuqorida keltirilgan mezonlar asosida muxtasar tarzda ko'rib o'tishga harakat qilamiz.

Alisher Navoiy nasriy merosining o'ziga xos namunalaridan biri «Vaqfiya» asaridir. Akad. B.Valixojayev mazkur asarni Navoiyning "risola"lari qatorida tavsiflaganlar. Asar hijriy 886 (melodiy 1481-1482) yilda yozilgan. Bu asarda Alisher Navoiy tomonidan bino qilingan «Ixlosiya» madrasasi, «Xalosiya» xonaqohi, «Shifoia» shifoxonasi, «Unsiya» turar joyi, «Qudsiya» masjidi va boshqa imoratlar turkumi uchun birkirilgan vaqf va undan foydalanish tartibi bayon etilgan. Shuning bilan birga «Vaqfiya»ga yozilgan keng debocha juda muhim masalalarga bag'ishlangan. U hamd bilan boshlanib, «nazm» sarlavhasi ostida o'n bir baytdan iborat masnaviyda bu mavzu davom ettirilgan. Masnaviyning boshlanishi va yakuniy bayti quyidagicha:

Anga hamdkim, ilmlari tayb etur,
Va shul ilm ila olam ul-g'ayb erur...

Ayon ulcha mavjudu ma'dum anga,

Azal to abad ilmi ma'lum anga. [37. 233-234]

Shundan so'ng na't qismi boshlanib, u ham o'n ikki baytli masnaviyda davom ettiriladi. Bundan keyin olamning va odamning yaratilishdan so'z borib, tabiatdagilar turli xilda ekanligi bayon etilgach, quyidagi ruboiy keltiriladi:

Dehqoni azalki, tuzdi bu turfa chaman,
Qilmadi aning barcha nabotini hasan.
Bir sari agar ekti gulu sarvu suman,
O'zga sari tikti xasu xoshoku tikan. [37. 237]

Asar davomida Sulton Husayn Boyqaro vasfi boshlanib, u yigirma sak-kiz baytdan iborat masnaviyda o'z ifodasini topadi. Alisher Navoiy Sulton Husayn Boyqaro davrida barcha qavm vakillari tarbiyat topgani haqida gapirib, uni ham masnaviy shaklida yakunlaydi. So'ng esa o'zi va hasbi holiga bag'ishlab nasr, masnaviy va ruboiy keltiriladi. Bunda eng muhimi Sulton Husayn Boyqaroning Alisher Navoiyga shohona noma (davlat manshuri) yuborgani va uning mazmuni esa masnaviyda bayon etilganidir [37. 248-250]. Unda Sulton Husayn Boyqaroning Alisher Navoiyga murojaat qilib, shunday yozadi:

Necha biyik aylasang so'zungni,
Ondin biyik etgabiz o'zungni...

Chun hukmni anglading dam urma,
Balkim dam urarg'a dag'i turma.

Qulluqqa ko'ngulni chust bog'la,
Xizmatqa belingni rust bog'la.

Alisher Navoiy hayotining bu davrida goh-gohida «go‘sha tutmoq» kayfiyati mavjud bo‘lgani hamda Husayn Boyqaroning bundan tashvishlanib, do‘sti Alisher Navoiyni buyuk asarlar yozish, buyuk ishlarni amalga oshirishga da’vat etgani ma’lum bo‘ladi. Shuning uchun Alisher Navoiy bu hukmni qabul qilgani haqida shunday yozadi:

Qullarg‘a o‘zumni hamdam ettim,
Qulluqqa belimni mahkam ettim.

Demak, mazkur masnaviy 1481 yil tarixiga daxldor bo‘lgan nihoyatda muhim bir voqeiyy hodisaning bayoni bo‘lib, u boshqa asarlarida aynan shu tarzda takrorlangan emas.

Quyidagi ruboiylar ham shu asarda keltirilgan:

To hirsu havas xirmani barbod o‘lmas,
To nafsu havo qasri baraftod o‘lmas,
To zulmu sitam joniga bedod o‘lmas-
El shod o‘lmas, mamlakat obod o‘lmas. [37. 253]

Shah adli uyini aylayin deb ma’mur,
Sa’y ayladim ul qadarkim, erdi maqdur.
Har nechaki Tengridin etar sham’g‘a nur,
Parvona erur joni kuyardin ma’zur. [37. 255]

Eldin manga garchi g‘ayri zahmat yo‘q edi,
Ayb ermas, agar muzd ila minnat yo‘q edi.
El berdilar, ammo manga rag‘bat yo‘q edi,
Shah davlatidin bularg‘a hojat yo‘q edi. [37. 255]

Bu va boshqa she'riy parchalar nasriy asarning «ziynati»gina bo'lib qolmay, balki o'sha davrdagi muhim hodisalar, shoir hasbi holi, kayfiyati, hayotiy tajribalarining falsafiy umumlashmasi sifatida katta adabiy-ma'rifiy ahamiyatga ega.

Alisher Navoiy rejalashtirgan “Zubdat ut-tavorix” nomli umumiy tarix qo'llanmasining tarkibiy qismlari bo'lgan «Tarixi anbiyo va hukamo» hamda «Tarixi muluki Ajam» asarlari Navoiy ilmiy-badiiy nasrining yorqin namunalari. Bu ikki asar yaxlit yozilishi mo'ljallangan umumiy tarixning ikki qismi bo'lganligi uchun ular tarkibidagi she'riy parchalar ham bir qator mushtarak jihatlarga ega.

«Tarixi anbiyo va hukamo»ning anbiyolar zikri qismida bayt, ruboiy va to'rt misradan iborat qit'alar u yoki bu sujet-qissaning yakuniy qismida keltiriladi. Masalan, Sulaymon payg'ambar hamda Luqmoni hakim haqidagi qissadan so'ng quyidagi ruboiylar keltirilgan:

Olamni Sulaymong'a xalq aylab ma'mur,
Hukmi soldi jinu bashar xaylig'a sho'r.
Oxir chu ajal anga maqom ayladi go'r,
Tufroq ichida qildi vatan o'ylaki mo'r. [46. 51]

Luqmonniki ba'zi dedilar payg'ambar,
Ba'zi dedilar hakimi pokiza siyar.
Uch ming yashabon bu dayrni qildi maqar
Ming muncha ham o'lsa, qilg'uluqtur bu safar. [46. 52]

Bu ruboiylarda so'z yuritilayotgan payg'ambar (hakim)larning sifat va fazilatlari, buyukliklari ixcham tarzda bayon etilib, shunga qaramay o'limning barhaqligi ta'kidlanadi. Bu bilan inson kim bo'lishidan qat'i nazar oxirini o'ylab yashashi, umrni behuda o'tkazmasligi kerakligi alohida uqtiriladi.

Asarning hakimlar zikri bo'limida esa har bir donishmandning turli masalaga oid hikmatli so'zlari keltiriladi-da, so'ng ularning mazmuni fard- baytlarda bayon qilinadi. Jumladan, Aflotunga nisbatan beriladigan quyidagi hikmat: «jud – tilamay

bermakdur, neyuchunki tilab bergan tilaganning mukofotidur» keltiriladi-da, Alisher Navoiy uning ma'nosini mana bu baytda bayon etadi:

Tilamay jud qil saxiy ersang,
Tilamak muzdidur tilab bersang. [46. 61]

Xuddi shunday Jolinus (Galen) hakimga mansub «bemorkim ishtahasi bo'lg'ay, ul tandurustdin yaxshiroqdurkim, ishtihasi bo'lmag'aykim, anga sihat ortar va munga ranj» hikmati keltirilib, Alisher Navoiy uning mazmunini quyidagi baytda bayon etadi:

Bemori mushtahiyg'a salomat nishonidur,
Chun tandurust mushtahiy ermas, ziyonidur. [46. 61]

«Tarixi anbiyo va hukamo» asari No'shiravoni Odilning vaziri Buzurjmehr hakimning zikri bilan nihoyasiga etadi. Alisher Navoiy bu donishmandning quyidagi hikmatli so'zlarini keltiradi: «Ustodimdin so'rdimkim, yigitlikda ne qilmoq yaxshi va qarilig'da ne qilmoq? Dedikim: yigitlikda ilm kasb qilmoq va qarilig'da ani amalga keltirmak yaxshidur». Shundan so'ng Alisher Navoiy ana shu hikmatning mazmunini quyidagi mashhur baytida umumlashtiradi:

Yigitlig'da yig' ilmning maxzani,
Qarilig' chog'i xarj qilg'il ani. [46. 62]

Ko'rinadiki, «Tarixi anbiyo va hukamo»dagi she'riy parchalar shoirning hayot tajribalari, donishmandlar hikmati asosida maydonga kelgan falsafiy-axloqiy mazmundagi hamda pand-nasihat xususiyatlariga molik bayt, ruboiy va qit'alardan iboratdir. Shu bilan birga, ularning ayrimlari bevosita Alisher Navoiy ijodiga mansub bo'lsa, ayrimlari mashhur hikmatning Navoiy tomonidan bajarilgan she'riy bayonidir.

«Tarixi muluki Ajam»da ham she'riy parchalar mavjud. Bu she'riy parchalardan Iskandar haqida keltirilgan sakkiz baytlik masnaviy hamda asar oxirida Sulton Husayn Boyqaro ham tilga olingan masnaviy diqqatga sazovordir. Oxirgi masnaviyda Alisher Navoiyning ijodiy rejasi, ya'ni Sulton Husayn Boyqaro, uning ajdodlari tarixini bitish niyati borligi ifoda etilgan. «Tarixi muluki Ajam»ning oxirida bu niyatning bayon etilishi yozilajak asari «Tarixi muluki Turon», yoki «Tarixi muluki turk» tarzida rejalashtirilgani va bu bilan o'zbek tilida umumiy tarixga oid yaxlit ixcham bir asarni —«Zubdat ul-tavorix»ni maydonga keltirishni nazarda tutganini taxmin qilishga imkon beradi.

«Munshaot» turli kishilarga yozilgan xat-maktublar to'plami bo'lib, har bir maktubda yo bayt, yo qit'a, yo masnaviy va yoki ruboiylardan foydalanilgan. Ularda shoir hasbi holi, birovga nasihat yoki boshqa mavzular qalamga olingan.

Jumladan:

To fasli bahor zebi olam bo'lg'ay,
 Ul zeb ila bog' sabzu xurram bo'lg'ay,
 Lutfung har bir elga damodam bo'lg'ay
 Gah-gah bizing jonibimiz ham bo'lg'ay. [36. 135]

Asarda nafaqat Alisher Navoiy qalamiga mansub she'rlar, balki boshqa mutafakkir, shoirlarning hikmatlaridan namunalar ham kiritilgan. Jumladan, asaridagi 56-tartib raqami bilan berilgan maktub Badiuzzamon Mirzoga qaratilgan bo'lib, quyidagicha boshlanadi: “Payg'ambar sallallohi alayhi vasallam buyurubturkim, “rizo urrobbi fir-rizail valadi va saxatun arrobbi fi saxatul validi” ya'ni tengri taolo rizosi ota rizosig'a vobastadur. Bas kishi ota rizosin hosil qilsa, tengri taolo rizosin ham hosil qilmish bo'lg'ay va ota g'azabig'a uchrasa, tengri taolo g'azabig'a uchramish bo'lg'ay. Mundoq bo'lg'ondin so'ngra kishi nechuk ota rizosidin ayru dam urg'ay yo qadam qo'yg'ay. Va mashoyix rahimulloh so'zi bukim, “valaduka rabbuka”, ya'ni otang parvardigoringdur, bu jihatdinkim, tengri taolo seni yo'qdin bor qilmoqqa vasila uldur va tufuliyatdin shabob sinnig'acha parvarish

berguvchi ul. Va Hakim Sulaymon alayhirrahmata val g'ufroon so'zidurkim, ota qodiri qayyum, ona roziqi marsum va Adib Ahmad rahmatulloh debdurkim,

Ruboiya:

Atodin xato kelsa ko'rma xato,
Savob bil xato toki qilsa xato.
Atoning xatosini bilgil savob,
Seni yuz balodin qutqarg'ay xudo. [36. 184]¹⁹

Keltirilgan she'riy matn to'rtlik shaklida (a, a, b, a), aruzning mutaqoribi musammani mahzuf vaznida (fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun fa'ul) yozilganligi, pand-nasihat mazmunida ekanligi, albatta Adib Ahmad hikmatlariga hamohang. Biroq "Hibat ul-haqoyiq" dostonining mavjud qo'lyozmalarida va nashrlarida ushbu to'rtlik mavjud emas. Boz ustiga mazmunan unga yaqin bo'lgan to'rtlikni ham izlab topish mushkul.

Mazkur she'r ko'proq Yusuf Xos Hojibning dostonidagi "Atang pandini sen qatig' tut qatig'..." deb boshlanuvchi to'rtlik uslubini eslatadi. Binobarin, birinchi bobda aytilgan fikrga yana qaytish ehtiyoji tug'iladi. Alisher Navoiy "Hibat ul-haqoyiq" dostonining bizga ma'lum bo'lmagan nusxasi yoki Adib Ahmad hukmatlarining og'zaki tarqalgan variantlaridan foydalangan.

"Nasoyim ul-muhabbat" asari ham navoiy nasrining o'ziga xos namunasidir. Alisher Navoiy o'tmish va zamondosh tasavvufshunos mutafakkirlar, xususan, Abdurahmon Jomiydan farqli o'laroq turkiy tasavvuf namoyandalari faoliyati va ijodiga alohida e'tibor bilan qaraganligi sir emas. "Nasoyim ul-muhabbat"da buni alohida ta'kidlagan holda turk mashoyixlarining ko'pchiligi haqida ma'lumot beradi, hikmatgo'ylarning hikmatlaridan misollar keltiradi: "Va turk mashoyixi zikri ham («Nafahot ul-uns»da) ozroq erdi, oni dog'i Hazrat shayx ul-mashoyix Xoja Ahmad Yassaviy (r.a.)din bu zamong'acha ulcha mumkin bor tilab, topib, zikrlarin va ba'zi holotu so'zlarin o'z mahallida darj qildim" [45]. Akad. B.Valixojayev bu haqda fikr

¹⁹ Nazarimizda, ikkinchi misraning qofiyasi "xato" emas, "ato", to'rtinchi misradagi so'z esa "qutarg'ay" tarzida o'qilishi lozim.

bildirib: “Alisher Navoiy... mutasavvuflar haqida turkiy- o‘zbek tilida tazkirani yaratib, unga ko‘p yangiliklar kiritdi, turkiy mashoyix-mutasavvuflar tarixini ham o‘sha davr nuqtayi nazaridan birinchi bo‘lib mukammal tarzda maydonga keltirdi”, - deb yozadilar.

“Nasoyim ul-muhabbat”da ko‘plab mutasavvuf shoirlarning she‘r va hikmatlaridan namunalar keltirilgan. Jumladan Sulaymon Boqirg‘oniy haqida shunday parcha keltiriladi: Oti Sulaymondur va Xoja Ahmad YAssaviy q.r.ning murididir. Hamonoki bir kun Xoja tabxe buyurg‘ondurlarki, mutbixe o‘tun yetmaydur, deb kelgandur. Alar ashobg‘a degandurlarki, yozidin o‘tun terib kelturung. Va ul zamon yog‘in yog‘adur ekandur. Ashobkim o‘tun teribdurlar, alar xizmatig‘a kelguncha yog‘in jihatidin o‘tunlar o‘l bo‘lg‘ondur. Hakim ato tergan o‘tinlarin to‘nig‘a chirmab, quruq kelturg‘andur. Xoja Hazratlari degandurlarki, ey farzand, hakimona ish qilding va alarg‘a bu laqab ondin qolg‘ondur va Hakim atog‘a hikmat tili go‘yo bo‘lubdur. Andoqki, oning favoidi atrok orosida mashhurdur. Ul jumladin biri budurkim:

Tiki turg‘on butadir,
Borg‘onlarni yutadir.
Borg‘onlar kelmas bo‘ldi,
Magar manzil andadur. [45. 420]

Alisher Navoiy nasrining gultoiji, shubhasiz, «Mahbub ul-qulub» asaridir. Mazkur asarda ham Alisher Navoiy turli janrdagi she‘riy parchalarni – bayt, ruboiy, qit‘a, masnaviylarni nasriy bayon orasida yoki xotimasida keltirgan. Ularda ham o‘sha bobdagi mulohazalarning she‘riy umumlashmasi kuzatiladi. Masalan, o‘ttiz birinchi faslda dehqonlik haqida so‘z borar ekan, oxirda shunday qit‘a keltirilgan:

Kimki dehqonlig‘ ayladi pasha,
Dog‘i non bermak o‘ldi anga shior.
Bo‘yla kimsa uluvvi rif‘atdin,

Odam o'lmasa, odamiy xud bor. [35. 38]

Shunday qilib, Alisher Navoiyning turli janrda yozilgan she'rlari uning nasriy asarlaridan ham o'rin olgan. Bular Alisher Navoiy she'riyatining ham nodir namunalari bo'lish barobarida turkiy nasrning xos belgilaridan bo'lgan nasr va nazm uyg'unligi, voqelikning lirik talqini namunalari, bu xususiyatlarni kamolot darajasiga olib chiqqan noyob durdona asarlar ekanligi bilan ham qadrlidir. Chunki ular she'riyatning barcha qonun-qoidalari talablari asosida yozilganlari bilan birga muhim tarixiy, falsafiy, axloqiy ahamiyatga molik mavzulardan bahs yuritadilar.

Xulosa qilib aytganda, buyuk so'z san'atkori Alisher Navoiy uzoq va boy an'analarga ega bo'lgan turkiy nasr taraqqiyoti, nasr va nazm uyg'unligida asar yaratish an'anasini kamolot darajasiga yetkazdi. Alisher Navoiyning deyarli barcha nasriy asarlarida turli shakl va mazmundagi she'riyat namunalari o'z ifodasini topgan.

Alisher Navoiyning nasriy asarlarida keltirilgan she'riy matnlarni muallifi yoki manbaiga ko'ra, janriga ko'ra hamda keltirilish sabablariga ko'ra tasnif qilish mumkin.

Alisher Navoiyning nasriy asarlaridan o'rin olgan turli janrlardagi she'rlari Navoiy she'riyatining ham nodir namunalari bo'lish barobarida turkiy nasrning xos belgilaridan bo'lgan nasr va nazm uyg'unligi, voqelikning lirik talqini namunalari, bu xususiyatlarni kamolot darajasiga olib chiqqan noyob durdona asarlar ekanligi bilan ham qadrlidir.

“Mahbub ul-qulub” asari tadqiqiga bag'ishlangan barcha ilmiy ishlarda asar tarkibidagi she'riy matnlar yoki parchalarga ham u yoki bu darajada murojaat etiladi. Biroq bu murojaatlar asosan misol keltirish shaklida namoyon bo'ladi.

2.2. “Mahbub ul-qulub”da she'riy matnlarning o'rni va janr rang-barangligi. “Mahbub ul-qulub”ning belgilovchi badiiy xususiyatlaridan biri,

jumladan, nasr bilan nazmning birgalikda ishlatilganligidandir. “Navoiyning bu asarida nazm asosan ikki maqsadda istifoda etiladi²⁰:

1. Prozaik bayonda bildirilgan fikrni xulosalash, yakunlash uchun keltiriladi.

Masalan: asarning uchinchi qismida “eran”lar xizmatida bo’lishlik, ular bilan birga fidoiylilik ko’rsatishning naqadar saodatli ekanligi haqida bir “tanbeh” bor bo’lib, fikr-da’vat shunday she’r bilan yakunlanadi:

Eranlar xizmatidin chekmagil bosh,
Agar boshingga gardundin yog’ar tosh.
Ki gar ul tosh bila boshing usholg’ay,
Saodat xattidur, gar zahmi qolg’ay.

Yoki avvalgi qismdagi “Dabiriston ahli zikrida” faslida Navoiy maktab muallimining g’oyat mashaqqatli, ayni choqda benihoya sharaflilik mehnatlarini olqishlaydi. U muallim qarshisida o’quvchining burchli ekanligini uqtirib o’tib, o’z fikrlarini quyidagi bayt bilan yakunlaydi:

Haq yo’lida kim sanga bir harf o’qutmish ranj ila,
Aylamak bo’lmas ado oning haqin yuz ganj ila...

2. “Mahbub ul-qulub” tarkibidagi nazmiy parchalar, undagi hikoyatlar kabi asarning badiiyligini ta’minlash, muallifning g’oyaviy niyatini, ruhiy holatini yanada kuchaytirib, bo’rttirib ifodalash uchun keltiriladi” [... 354].

“Mahbub ul-qulub”dagi she’riy matnlarning umumiy tavsifi quyidagicha:

Asar muqaddimasida jami oltita she’riy matn mavjud (qit’a, masnaviy, masnaviy, ruboiy, bayt, qit’a) bo’lib 14 bayt (28 misra)dan iborat.

Asarning “Xaloyiq ahvol va af’ol va aqvolininng kayfiyati” haqidagi birinchi bobda jami 62 bayt (124 misra) she’r kiritilgan. Shundan, o’nta masnaviy (26 bayt),

²⁰ Ozbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 2-tom. – Toshkent: Fan, 1977. 353-354.

yettita qit'a (14 bayt), yettita ruboiy (14 bayt) hamda o'n beshta fard baytlar, jami 39 ta she'r va she'riy parcha kiritilgan.

“Hamida af'ol va zamima xisol xosiyatlari” haqidagi ikkinchi bobda jami 29 bayt (58 misra) she'r kiritilgan. Shundan, bitta masnaviy (2 bayt), uchta qit'a (6 bayt), to'rtta ruboiy (8 bayt) hamda o'n to'rtta fard baytlar, jami 22 ta she'r va she'riy parcha kiritilgan.

“Mutafarriqa favoyid va amsol surati” haqidagi uchinchi bobda jami 132 bayt (264 misra) she'r kiritilgan. Shundan, o'n to'rtta masnaviy (28 bayt), o'n yettita qit'a (34 bayt), yettita ruboiy (14 bayt) hamda ellik oltita fard baytlar, jami 94 ta she'r va she'riy parcha kiritilgan.

Va nihoyat, “Mahbub ul-qulub” asarining xotima qismida jami 6 bayt (12 misra) she'r kiritilgan. Shundan, ikkita fard bayt, bitta ruboiy (2 bayt) hamda bitta ruboiy-tarix (2 bayt), jami 4 ta she'r va she'riy parcha kiritilgan.

Demak, “Mahbub ul-qulub” asarida jami 165 ta she'riy matn keltirilgan bo'lib, ularning umumiy hajmi 244 baytni tashkil etadi. Bo'limlar bo'yicha eng salmoqlisi uchinchi bo'lm bo'lib, unda jami 132 bayt (264 misra) hajmdagi 94 ta she'r mavjud.

She'riy matnlarning salmog'i va janr rang-barangligi haqida dastlabki tasavvur hosil bo'lishi uchun quyidagi jadvalda berilgan ma'lumotlarga e'tibor qilishimiz mumkin:

№	Janrlar	Muqaddima	1-bo'lim	2-bo'lim	3-bo'lim	Xotima	Jami
1	Qit'alar						
	2 baytlik	1	7	3			11
	3 baytlik	1					1
2	Masnaviy	2	10	1	14		27
	Shundan						
	2 baytlik	1	8	1	14		24
	3 baytlik		1				1
	4 baytlik	1					1
	7 baytlik		1				1
3	Ruboiy	1	7	4	7	1	20
4	Tarix					1	1
5	Fard	1	15	14	56	2	88
	Jami she'r	6	39	22	94	4	165
	Jami bayt	14	62	29	132	6	244

Jadvaldan ma'lum bo'ladiki, "Mahbub ul-qulub"da jami besh xil janrdagi (qit'a, masnaviy, ruboiy, fard va tarix) she'r va she'riy parchalar mavjud bo'lib, ular orasida eng ko'p uchraydigan janr fard baytlar bo'lib ularning soni 88 ta. Shuningdek, masnaviy 27 ta, ruboiy 20 ta, qit'a 12 ta hamda tarix bitta.

Asardagi qit'alar, asosan, ikki baytlik, bittasi uch baytlik qi'alardir. Masnaviylarning esa askariyati ikki baytlik bo'lib, shu bilan birga, bittadan uch baytlik, to'rt baytlik va yeti baytlik masnaviylar ham bor.

Sheriy matnlar orasida hajman eng kattasi yeti baytlik masnaviy bo'lib, Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlangan madhiyadir:

Ulus podshohiyu darveshvash,
Anga shohliqdin kelib faqr xash.

Jahondorlarga sipehr intiboh,
Valiy ahli faqr ollida xoki roh.

Jahon mulki olinda xoshokcha,
Vale bir ko'ngul mulki aflokcha.

Bari benavolar navosozi ul,
Hamul nav'kim Shoh Abulg'ozi ul.

Kelib ayni insonu insoni ayn,
Jahon vorisi Shoh Sulton Husayn.

Ki to bo'lsa gardung'a davvorliq,
Anga boqiy o'lsun jahondorliq.

Xaloyiqqa bu shahdin o'lsun nishot,
Dame bo'lmasun xoli andin bisot. [35. 13]

She'r va she'riy parcha deb alohida ta'kidlaganimizning boisi, ayrim matnlar (xususan ruboiy va qi'alar) tugallangan xususiyat kasb etsa, ayrimlari nisbiy tugal mazmunga ega. Xususan, muqaddimadagi oxirgi qit'a tugallangan, mustaqil she'r xususiyatiga ega. Qolganlari nasrda ifodalangan fikrning she'riy ifodasi yoki davomi yoxud ulovchi vositadir. Ishonch hosil qilish uchun quyidagi masnaviy va qit'ani solishtirib ko'ramiz:

Masnaviy:

Gahe topdim falakdin notavonlig',
Gahe ko'rdum zamondin komronlig'.

Base issig‘-sovug‘ ko‘rdum zamonda,
Base achchig‘-chuchuk tottim jahonda. [35. 9]

Qit’a:

Ne bilgay ul kishikim, shahdu mayni totmaydur
Ki, vaslu hajr kibi ul chuchuk durur, bu achig’.

Bilur zalil musofirki, po’ya aylarda,
Qumu to’zong yumshog’, tog’u xoradur qatig’. [35. 10]

Muqaddimadagi dastlabki qit’a hamd, masnaviy na’t, keyingi she’riy matnlar hasbu hol mazmunida. Yuqorida keltirilgan songgi qit’a esa ijtimoiy-falsafiy mazmundadir.

Shuni ham qayd etish kerakki, she’riy matnlarning aksariyati janr nomi bilan nomlangan bo’lib, ayrimlaridagina “nazm” atamasi bilan berilgan.

Ayrim janrlarni ko’rib o’tamiz.

Ma’lumki, ruboiy janri fors-tojik va turkiy adabiyotning keng tarqalgan o’ziga xos janrlaridan bo’lib, aruzning hazaj bahri, axrab va axram shajaralarida yoziladi. Ruboiylar asosan falsafiy mavzuda, ba’zan ijtimoiy-didaktik va ishqiy mavzularda, ba’zan esa hasbu hol mazmunida yoziladi. Navoiyning “Xazoyin ul-ma’oni” kulliyotidan 133 ta ruboiy o’rin olganligi ma’lum.

“Mahbub ul-qulub” asaridagi ruboiylar shoir devonidagi ruboiylar bilan mushtarak va ayrim farqli xususiyatlarga ega. Misol tariqasida muqaddima va xotima qismlardagi ruboiylarni ko’rib o’tamiz:

Gardun **gah**²¹ manga jafou dunluq qildi,
Baxtim kibi har ishta zabunluq qildi,

²¹ “gah” so’zi o’rinda “ki” bog’lovchisi bo’lishi lozim.

Gah kom sari rahnamunliq qildi,
Alqissa: base beqalamunluq qildi. [35. 10]

Mazkur ruboiy hasbu hol mazmunida bo'lib, gardun (taqdir, qismat)ning o'zgaruvchanligi, gohida shodlik, gohida g'amga etaklashi haqida shikoyat mazmunida yozilgan. Ruboiy xosa shaklida bo'lib qofiya (dunluq, zabunluq, beqalamunluq) va radif (qildi) an'anaviy tarzda qo'llangan.

Bu nomaki, xomasig'a qilding maktub,
Qil ahli qulub ollida «Mahbubi qulub».
El ayb topardin qilma ma'yub,
Har kim o'qusa nasiba etgil matlub. [35. 130]

Ruboiyning tarona usulida yozilgan ushbu matnga nisbatan she'riy parcha atamasini ishlatish to'g'riroqdek tuyuladi. Zero matndan ajratib olinganda, u o' ma'nosini saqlab qolmaydi.

Qit'a bo'lak, parcha ma'nosini bildirib, asosan ikki baytdan iborat bo'ladigan, juft misralar qofiyalanib, tor misralar ochiq qoladigan she'rning janr atamasi ekanligi ma'lum. Navoiyning turkiy devonida 210 ta qit'a mavjud bo'lib, ular asosan an'anaviy tarzda ijtimoiy-falsafiy, didaktik va hasbu hol mazmunidadir.²²

“Mahbub ul-qulub” asaridagi qit'alarda ham bir qator o'ziga xos jihatlar namoyon bo'ladi:

Kimki dehqonlig' ayladi pesha,
Dag'i non bermak o'ldi anga shior.

Bo'yla kimsa uluvvi rif'atdin,
Odam o'lmasa, odamiy xud bor. [35. 38]

²² Navoiy qit'alari haqida qarang: Haqqulov I. Kamol et kasbkim... - Toshkent: Fan, 1994.

Masnaviy:

Eranlar xizmatidin chekmagil bosh,
Agar boshingga gardundin yog'ar tosh.

Ki gar ul tosh bila boshing usholg'ay,
Saodat xattidur, gar zahmi qolg'ay.

Xulosa qilib aytganda, “Mahbub ul-qulub” asarida nazmiy matnlar asosan ikki xil maqsad asosida kiritilgan:

- nazmiy bayonda bildirilgan fikrni xulosalash, yakunlash uchun;
- hikoyatlar kabi asarning badiiyligini ta'minlash, muallifning g'oyaviy niyatini, ruhiy holatini yanada kuchaytirib, bo'rttirib ifodalash uchun.

“Mahbub ul-qulub”da jami besh xil janrdagi (qit'a, masnaviy, ruboiy, fard va tarix) she'r va she'riy parchalar mavjud bo'lib, ular orasida eng ko'p uchraydigan janr fard baytlar bo'lib ularning soni 88 ta. Shuningdek, masnaviy 27 ta, ruboiy 20 ta, qit'a 12 ta hamda tarix bitta.

Asar tarkibidagi ruboiylar, qit'alar hamda masnaviylarning ayrimlari ushbu she'riy janrlarning eng go'zal namunalari sifatida mustaqil asar xususiyatiga egadir. Ularda shu janrlarning badiiy qonuniyatlariga xos bo'lgan mavzu, mazmun va shakl bilan bog'liq janr belgilari namoyon bo'ladi. Mazkur janr namunalari ko'p jihatdan Navoiy devonlaridgi she'rlarga hamohangdir. Shu bilan birga ayrim o'ziga xosliklarga ham ega. Bu birinchi navbada tanqidiy ruh va didaktikaning kuchaytirilganligi bilan belgilanadi.

2.3. She'riy matnlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. “Mahbub ul-qulub” asari Alisher Navoiyning boy hayotiy tajribasi, islom dunyosining deyarli barcha ilg'or fikr va qarashlarini o'zida mujassam etgan yuksak tafakkurining yakuniy xulosalari ifodalangan asar desak xato bo'lmaydi. Unda o'z ifodasini topgan axloqiy-flsafiy va ijtimoiy qarashlar ham bu qarashlarning shoirona badiiy ifodasi bo'lgan

she'riy parchalar ham Navoiy dahosining turli qirralarini namoyon etuvchi birlamchi manbalar sirasiga kiradi.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, "Mahbub ul-qulub" asri uzoq yillar davomida matnshunos olimlar tomonidan o'rganilgan, bir necha marotaba nashr ettirilgan bo'lishiga qaramay, uning matnida, shu jumladan, she'riy matnlarda bir qator nuqsonlar mavjud. Ularning ayrimlari texnik nuqsonlar bo'lsa, ayrimlari imloviy xatolar, ayrimlari esa mazmunga ta'sir etuvchi matniy nuqsonlardir. Fikr asossiz bo'lmasligi – uchun ba'zi misollarni keltirmoqchimiz:

1. Asarning muqaddimasida masnaviy shaklida keltirilgan na't aruzning hazaji musaddasi maqsur (mahzuf) vaznida yozilgan

Iki gisu/si ikki lay/lat ul qadr,
Bu yanglig' ik/ki layl ichra/ yuzi badr.
V – – – / V – – – / V – —

Mafoiylun mafoiylun mafoiyl

Masnaviyning ikkinchi bayti dastlabki misrasi vaznida bitta hijo yetishmaydi:

__Laylu bad/r o'lub sham'i/ shabiston,
Uzoridin / xo'y anda kav/kabiston.

Matndan ma'lum bo'ladi-ki, misra boshida "bu" so'zi tushib qolgan. Shu masnaviyninigi so'nggi bayti esa mutlaqo she'r vazniga muvofiq emas:

Nubuvvat spehrida quyosh erkoni ma'lum,
V – – V – V – V – V – – V – –
Musohiblar sha'nida ashobi kannujum. [35.8]
V – – – – V – – – V – V –

Bu matn, aslida masnaviyning davomi emas, saj' usulida yozilgan nasriy matnning (masnaviydan oldingi bo'lsa kerak) davomidir.

2. "Mudarrislar zikrida" quyidagi fikr va masnaviy bilan yakunlanadi: "Olim kerakkim, mutaqqiy bo'lsa va ogoh va ayturg'a qola Alloh, qola Rasulolloh.

Qit'a:

Har ne aytur bo'lsa Xudovu Rasuldin,

Andin so'ng o'lsa mujtahidu avliyo so'zi.

Andin kishi ne kim eshitur va o'rganur bo'lsa,
Xudo so'zi yo'q esa, Mustafo so'zi.

Qit'aning ikkinchi bayti nafaqat vaznga tushmaydi (birinchi misra uzun – 15 ta hijo, ikkinchisi, aksincha, qisqa – 11 ta hijo), balki mazmun ham jiddiy tarzda buziladi. Buning sababi birinchi misra oxiridagi “bo'lsa” so'zi, aslida, ikkinchi misra boshida bo'lishi jozim:

Andin kishi ne kim eshitur va yo o'rganur,
Bo'lsa Xudo so'zi, yo'q esa Mustafo so'zi.

Demak, asarni to'g'ri tushunish va tahlil qilishimiz uchun matnshunos olimlarimiz hali yana ancha izlanishlar olib borishlari lozim bo'ladi.

“Mahbub ul-qulub” asaridagi she'riy matnlar aruzning turli-tuman bahrlarida yozilgan. E'tiborli tomoni shundaki, Navoiy vazn tanlashda Sharq poetikasining bu boradagi qarashlari, ya'ni she'rning mazmunidan kelib chiqadi. Misol uchun, Husayn Boyqaro madhi uchun “Shohnoma”larga xos bo'lgan mutaqorib bahrini tanlaydi:

Kelib ayni insonu insoni ayn,
Jahon vorisi Shoh Sulton Husayn.

Ki to bo'lsa gardung'a davvorliq,
Anga boqiy o'lsun jahondorliq.

Fa'uvlun fa'uvlun fa'uvlun fa'ul
Mutaqoribi musammani mahzuf.

Didaktik mazmun uchun esa shoir asosan ramal va hazaj bahrlarini tanlagan:

Haq yo'lida kim sanga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila. [35. 28]

Foilotun foilotun foilotun foilun.

Ilmdin oriy ulusning johili xudkomasi,
O'rganurga jiddu jahd etgan jahon allomasi. [35. 112].

Foilotun foilotun foilotun foilun.

Ramali musammani mahzuf.

Eranlar xizmatidin chekmagil bosh,
Agar boshingga gardundin yog'ar tosh.

Ki gar ul tosh bila boshing usholg'ay,
Saodat xattidur, gar zahmi qolg'ay.

Mafoiylun mafoiylun fauvlun

Hazaji musaddasi mahzuf

Biroq bu bilan Alisher Navoiy asarda faqat sodda vaznlardan foydalangan ekan, degan tasavvur hosil bo'lmasligi lozim. Zeri Navoiy she'riyatida (devonlarida) bo'lgani kabi, "Mahbub ul-qulub"dagi she'riy matnlarda ham aruzning rang-barang bahrlaridan foydalanilgan. Xususan:

Xafif:

Ko'p demak birla bo'lmag'il nodon,
Ko'p yemak bir/la bo'lmag'il / hayvon. [35. 108].

— V — — V — V — — —

Fo i lo tun ma fo i lun fa' lan

Xafifi musaddas ("Sab'ayi sayyor" vazni)

Mujtass:

Dimog'ima tushubon ko'p tasavvuru pindor,

O'zumni jo/hu ulug'luq/qa ayladim /izhor. [35. 10]

V – V – / V V – – / V – V – / – –

Mafoilun failotun mafoilun fa'lan.

Mujtasi musammani maxbuni abtar.²³

Keltirilgan she'riy namunalarda ham ko'pgina badiiy san'atlarning ishlatilganligi ma'lum

Oldingi bobda “Mahbub ul-qulub”ning nasriy matnida badiiy san'atlarning turli xillaridan nihoyatda ustalik bilan foydalanganligini ko'rgan edik. Bu xususiyat asar tarkibidagi she'riy parchalarda bundan-da go'zalroq tarzda namoyon bo'ladi. Jumladan so'zlarning ohangdorligi, qofiyalanishi bilan bog'liq she'riy san'atlarning bir necha turlarini ko'rishimiz mumkin. Xususanl, **tarse'**:

Ko'p demak birla bo'lmag'il nodon,

Ko'p emak birla bo'lmag'il hayvon. [35. 108].

Asarda ma'no bilan bog'liq san'atlarning ham o'ziga xos namunalari yaratilgan. Hasbu hol mazmunidagi ushbu qit'ada harb ishi bilan bo'liq tushunchalarni mahorat bilan ishlatib, tanosib san'atining go'zal namunasini yaratgan:

Jafolarkim, mening jonimg'a yetmish dahr xalqidin,

Biri **kuffordin** kelmas **asir o'lg'on musulmong'a**.

Ne **bedodikim**, istarlar qilib so'ngra o'kush **tuhmat**,

Dag'i **yuklarlar** oxir bu **jafokash** zoru hayrong'a.

Bu bedod ahlidin gar **jon berib maxlas** erur mumkin,

Qilib jonni fido, billahki, minnat qo'yg'amen jong'a.

²³ Ushbu nihoyatda chiroyli vaznlardan biri mashhur “Qaro ko'zum” g'azalida ham qo'llangan.

Tazod:

Xoziq tabibi xushgo'y tan ranjig'a **shifodur**,

Omiyu tundu badxo'y el jonig'a **balodur**.

Xullas, “Mahbub ul-qulub” asari Alisher Navoiy she'riyatini, she'riy mahoratini o'rganish, uning yangi-yangi qirralarini kashf etish uchun ham qimmatli manba sanaladi.

Bitiruv malakaviy ishining ikkinchi bobi bo'yicha quyidagi xulosalarga kelindi.

Alisher Navoiyning nasriy asarlarida keltirilgan she'riy matnlarni muallifi yoki manbaiga ko'ra, janriga ko'ra hamda keltirilish sabablariga ko'ra tasnif qilish mumkin.

Alisher Navoiyning nasriy asarlaridan o'rin olgan turli janrlardagi she'rlari Navoiy she'riyatining ham nodir namunalari bo'lish barobarida turkiy nasrning xos belgilaridan bo'lgan nasr va nazm uyg'unligi, voqelikning lirik talqini namunalari, bu xususiyatlarni kamolot darajasiga olib chiqqan noyob durdona asarlar ekanligi bilan ham qadrlidir. Binobarin, besh xil janrdagi 488 misra she'rni o'z ichiga olgan manbani she'riyat poetikasi nuqtai nazaridan maxsus o'rganish bugungi adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridandir.

“Mahbub ul-qulub” asarida nazmiy matnlar asosan ikki xil maqsad asosida kiritilgan:

- nazmiy bayonda bildirilgan fikrni xulosalash, yakunlash uchun;
- hikoyatlar kabi asarning badiiyligini ta'minlash, muallifning g'oyaviy niyatini, ruhiy holatini yanada kuchaytirib, bo'rttirib ifodalash uchun.

“Mahbub ul-qulub”da jami besh xil janrdagi (qit'a, masnaviy, ruboiy, fard va tarix) she'r va she'riy parchalar mavjud bo'lib, ular orasida eng ko'p uchraydigan janr fard baytlar bo'lib ularning soni 88 ta. Shuningdek, masnaviy 27 ta, ruboiy 20 ta, qit'a 12 ta hamda tarix bitta.

Asar tarkibidagi ruboiylar, qit'alar hamda masnaviylarning ayrimlari ushbu she'riy janrlarning eng go'zal namunalari sifatida mustaqil asar xususiyatiga egadir.

Ularda shu janrlarning badiiy qonuniyatlariga xos bo'lgan mavzu, mazmun va shakl bilan bog'liq janr belgilari namoyon bo'ladi. Mazkur janr namunalari ko'p jihatdan Navoiy devonlaridagi she'rlarga hamohangdir. Shu bilan birga ayrim o'ziga xosliklarga ham ega. Bu birinchi navbada tanqidiy ruh va didaktikaning kuchaytirilganligi bilan belgilanadi.

“Mahbub ul-qulub” asri uzoq yillar davomida matnshunos olimlar tomonidan o'rganilgan, bir necha marotaba nashr ettirilgan bo'lishiga qaramay, uning matnida, shu jumladan, she'riy matnlarda bir qatoj nuqsonlar mavjud. Ularning ayrimlari texnik nuqsonlar bo'lsa, ayrimlari imloviy xatolar, ayrimlari esa mazmunga ta'sir etuvchi matniy nuqsonlardir. Ishda bu borada bir necha misol keltirildi.

“Mahbub ul-qulub” asaridagi she'riy matnlar aruzning turli-tuman bahrlarida yozilgan. E'tiborli tomoni shundaki, Navoiy vazn tanlashda Sharq poetikasining bu boradagi qarashlari, ya'ni she'rning mazmunidan kelib chiqadi. Misol uchun, Husayn Boyqaro madhi uchun “Shohnoma”larga xos bo'lgan mutaqorib bahrini tanlagan bo'lsa, didaktik mazmun uchun esa shoir asosan ramal va hazaj bahrlarini tanlagan. Shu bilan birga, she'riyatida (devonlarida) bo'lgani kabi, “Mahbub ul-qulub”dagi she'riy matnlarda ham Navoiy aruzning rang-barang bahrlaridan (rajaz, xafif, sare', mujtass va hokazo) foydalanganligini qayd etish lozim.

“Mahbub ul-qulub”ning asosiy nasriy matnida bo'lgani kabi she'riy parchalarda ham badiiy san'atlarning turli xillaridan nihoyatda ustalik bilan foydalanadi. “Mahbub ul-qulub” asari Alisher Navoiy she'riyatini, she'riy mahoratini o'rganish, uning yangi-yangi qirralarini kashf etish uchun ham qimmatli manba sanaladi.

X U L O S A

Ushbu bitiruv malakaviy ishida Alisher Navoiy merosining bebaho durdona namunalaridan biri bo'lgan "Mahbub ul-qulub" asaridagi she'riy parchalar, matnlar va mustaqil asarlar badiiyat mezonlari asosida imkon doirasida tadqiq va tahlil etildi. Ularning janr xususiyatlari, mavzu, mazmun hamda badiiy barkamolligini yuzaga keltirgan omillar haqidagi kuzatishlarimiz va ayrim xulosalarimizni bayon etdik. Bitiruv malakaviy ishi davomida o'rganilgan materiallar asosida quyidagi umumlashma xulosalarga kelindi:

Alisher Navoiyning nasriy merosi, xususan, "Mahbub ul-qulub" asarini turli nuqtai nazardan tadqiq etish ishlari uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan jarayon bo'lib bu jarayonda nafaqat o'zbek adabiyotshunoslari, balki tojik, rus va ko'plab boshqa xorijiy adabiyotshunoslik vakillari ham faol ishtirok etganligi quvonarli holdir. Biroq qayd etish kerakki, Har bir davr adabiyotshunosligi vakillarining bu borada o'z yutuq va kamchiliklari mavjud. Bular ba'zan hukmron mafkura va uning cheklovlari bilan bog'liq bo'lsa, ba'zan asarning mukammal matni yaratilmaganligi bilan, ba'zan esa oddiy e'tiborsizlik bilan bog'liqdir.

Alisher Navoiyning nasriy asarlari mavzu, janr va badiiyati jihatidan rang-barangdir. Bu asarlar qanday mavzuga bag'ishlanganliklaridan yoki qaysi janrga mansubliklaridan qat'i nazar o'sha davrdagi nasrning ilmiy-badiiy, estetik talab va mezonlariga to'la-to'kis muvofiq bo'lib, Navoiyga qadar bo'lgan turkiy-o'zbek nasrini har jihatdan boyitdi. Alisher Navoiyning nasriy merosi turli nuqtai nazardan tasnif va tahlil etiladi. Bitiruv malakaviy ishida akademik B.Valixo'jayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" o'quv qo'llanmalarida hamda S.Tohirovning "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" fanidan tuzgan o'quv-uslubiy majmuasidagi Navoiyning nasriy asarlari tasnifiga murojaat etildi.

Alisher Navoiyning nasriy asarlari orasida "Mahbub ul-qulub" (Ko'ngillar sevgilisi) alohida ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, davlatchilik va qonunchilik masalalariga doir mulohazalari bayon etilgan mazkur asar odamlarni ogohlik va saboq olishga, Vatan, xalq, odamiyat uchun xizmat qilish uchun komillikka erishish, komil inson bo'lish shart ekanligini uqtiriladi. Shu

bilan birga, ana shu – komillikka erishishning yo'l va vositalari, shartlari kabi masalalar tasavvufiy qarashlar negizida ko'zdan kechiriladi.

«Mahbub ul-qulub» Alisher Navoiyning boshqa nasriy asarlari kabi o'sha davr nasrining badiiy xususiyatlarini o'zida mujassam etibgina qolmasdan, ularni yanada rivojlantiradi. Unda saj' usulining turli ko'rinishlari (saj'i mutavozi, saj'i mutarraf, saj'i mutavozin), rang-barang badiiy san'atlar (tashbeh, tazod, sifatlash, mubolag'a, talmeh va bosh.)dan ustalik bilan foydalanilgan, hikoya va rivoyatlar, turli iqtiboslar, she'riy parchalar mohirlik bilan ishlatilgan.

“Mahbub ul-qulub” asari tadqiqiga bag'ishlangan barcha ilmiy ishlarda asar tarkibidagi she'riy matnlar yoki parchalarga ham u yoki bu darajada murojaat etiladi. Biroq bu murojaatlar asosan misol keltirish shaklida namoyon bo'ladi. Akad. B.Valixo'jayevning “O'zbek adabiyoti tarixi” o'quv qo'llanmalari I kitobida ilk marotaba “Navoiyning nasriy asarlaridagi she'riy parchalar” [10. 127-140] nomida alohida mavzu kiritilgan. Unda “Mahbub ul-qulub” asari tarkibidagi ayrim she'riy matnlarning janr va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida qimmatli ma'lumotlar va fikr-mulohazalar bildirilgan.

Buyuk so'z san'atkori Alisher Navoiy uzoq va boy an'analarga ega bo'lgan turkiy nasr taraqqiyoti, nasr va nazm uyg'unligida asar yaratish an'anasini kamolot darajasiga yetkazdi. Uning deyarli barcha nasriy asarlarida turli shakl va mazmundagi she'riyat namunalari o'z ifodasini topgan.

Alisher Navoiyning nasriy asarlarida keltirilgan she'riy matnlarni muallifi yoki manbaiga ko'ra, janriga ko'ra hamda keltirilish sabablariga ko'ra tasnif qilish mumkin.

Alisher Navoiyning nasriy asarlaridan o'rin olgan turli janrlardagi she'rlari Navoiy she'riyatining ham nodir namunalari bo'lish barobarida turkiy nasrning xos belgilaridan bo'lgan nasr va nazm uyg'unligi, voqelikning lirik talqini namunalari, bu xususiyatlarni kamolot darajasiga olib chiqqan noyob durdona asarlar ekanligi bilan ham qadrlidir. Binobarin, besh xil janrdagi 488 misra she'rni o'z ichiga olgan manbani she'riyat poetikasi nuqtai nazaridan maxsus o'rganish bugungi adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridandir.

“Mahbub ul-qulub” asarida nazmiy matnlar asosan ikki xil maqsad asosida kiritilgan:

- nazmiy bayonda bildirilgan fikrni xulosalash, yakunlash uchun;
- hikoyatlar kabi asarning badiiyligini ta'minlash, muallifning g'oyaviy niyatini, ruhiy holatini yanada kuchaytirib, bo'rttirib ifodalash uchun.

“Mahbub ul-qulub”da jami besh xil janrdagi (qit'a, masnaviy, ruboiy, fard va tarix) she'r va she'riy parchalar mavjud bo'lib, ular orasida eng ko'p uchraydigan janr fard baytlar bo'lib ularning soni 88 ta. Shuningdek, masnaviy 27 ta, ruboiy 20 ta, qit'a 12 ta hamda tarix bitta.

Asar tarkibidagi ruboiylar, qit'alar hamda masnaviylarning ayrimlari ushbu she'riy janrlarning eng go'zal namunalari sifatida mustaqil asar xususiyatiga egadir. Ularda shu janrlarning badiiy qonuniyatlariga xos bo'lgan mavzu, mazmun va shakl bilan bog'liq janr belgilari namoyon bo'ladi. Mazkur janr namunalari ko'p jihatdan Navoiy devonlaridagi she'rlarga hamohangdir. Shu bilan birga ayrim o'ziga xosliklarga ham ega. Bu birinchi navbada tanqidiy ruh va didaktikaning kuchaytirilganligi bilan belgilanadi.

“Mahbub ul-qulub” asri uzoq yillar davomida matnshunos olimlar tomonidan o'rganilgan, bir necha marotaba nashr ettirilgan bo'lishiga qaramay, uning matnida, shu jumladan, she'riy matnlarda bir qatoj nuqsonlar mavjud. Ularning ayrimlari texnik nuqsonlar bo'lsa, ayrimlari imloviy xatolar, ayrimlari esa mazmunga ta'sir etuvchi matniy nuqsonlardir. Ishda bu borada bir necha misol keltirildi.

“Mahbub ul-qulub” asaridagi she'riy matnlar aruzning turli-tuman bahrlarida yozilgan. E'tiborli tomoni shundaki, Navoiy vazn tanlashda Sharq poetikasining bu boradagi qarashlari, ya'ni she'rning mazmunidan kelib chiqadi. Misol uchun, Husayn Boyqaro madhi uchun “Shohnoma”larga xos bo'lgan mutaqorib bahrini tanlagan bo'lsa, didaktik mazmun uchun esa shoir asosan ramal va hazaj bahrlarini tanlagan. Shu bilan birga, she'riyatida (devonlarida) bo'lgani kabi, “Mahbub ul-qulub”dagi she'riy matnlarda ham Navoiy aruzning rang-barang bahrlaridan (rajaz, xafif, sare', mujtass va hokazo) foydalanganligini qayd etish lozim.

“Mahbub ul-qulub”ning asosiy nasriy matnida bo’lgani kabi she’riy parchalarda ham badiiy san’atlarning turli xillaridan nihoyatda ustalik bilan foydalanadi. “Mahbub ul-qulub” asari Alisher Navoiy she’riyatini, she’riy mahoratini o’rganish, uning yangi-yangi qirralarini kashf etish uchun ham qimmatli manba sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Siyosiy va mafkuraviy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma`naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Adabiyotga e`tibor - ma`naviyatga, kelajakka e`tibor. – Toshkent: O`zbekiston, 2009.
3. Karimov. I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari. - Toshkent: O`zbekiston, 1998. 524-b.
4. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. - Т.: Янги авлод, 2001.- 184 б.

II. Ilmiy adabiyotlar

5. Абдуғафуров А. Навоий ижодида сатира. – Тошкент: Фан, 1972.
6. Бертельс. Е.Э. Навоий (Рус тилидан И.Мирзаев таржимаси). – Т: Тафаккур қаноти, 2015.
7. Бертельс. Е.Э. Избранные труды. Наваи и Жами. – М.: Наука, 1965.
8. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1993.
9. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи (Ўқув қўлланма). I қисм. – Сам.: СамДУ нашри, 2002.
10. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи (Ўқув қўлланма). II қисм. – Сам.: СамДУ нашри, 2002.
11. Валихўжаев Б. Мумтоз сиймолар. 1-китоб. -Т.: А.Қодирий, 2002.
12. Vohidov R., Eshonqulov H. O`zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (O`quv qo`llanma) –Т.: Yangi asr, 2006.
13. Йўлдошев Б. Алишер Навоий прозасида фразеологизмлар // Алишер Навоий ижодини ўрганиш масалалари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1981. 94-100-бетлар.
14. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. - Тошкент: Ёзувчи, 1996.

15. Комилов Н. Хизр чашмаси. –Т.: Маънавият, 2005.
16. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1976.
17. Муҳиддинов М. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Фан, 2005.
18. Муҳиддинов М. Навобахш ҳикматлар. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2013.
19. Орзибеков Р. Лирикада кичик жанрлар...
20. Orzibekov R. O'zbek mumtoz she'riyati janrlari...
21. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент: Фан, 1977. 149-бет.
22. Салоҳий Д. Навоий назмиёти (Ўқув қўлланма). – Тошкент, 2012.
23. Саримсоқов Б. Ўзбек адабиётида сажъ. – Тошкент: Фан, 1978.
24. Tohirov S. O'zbek she'riyatida aruz. – Samarqand: SamDU nashri, 2010.
25. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 томлик. 2-том. – Т.: Фан, 1974.
26. Ўзбек насри тарихидан. – Тошкент: Фан, 1982.
27. Ғафуржонова Т. Алишер Навоий ижодиёти ва наср проблемалари // Ўзбек насри тарихидан. – Тошкент: Фан, 1982. 36-59-бетлар.
28. Ҳайитметов А. Навоийхонлик суҳбатлари. - Т.: Фан, 1993.
29. Ҳайитметов А. Алишер Навоийнинг адабий-танқидий қарашлари. – Тошкент: Фан, 1959.
30. Ҳайитов Ш. «Маҳбуб ул-қулуб»да тасаввуфий жилोलар. – Тошкент: Фан, 1996.
31. Ҳайитов Ш. Баркамол инсон тимсоли. – Тошкент: Фан, 2003.
- 32.
33. Ҳожиаҳмедов А. Навоий арузи нафосати. – Тошкент: Фан, 2006.
34. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2008.
35. Ҳусайний Атоуллоҳ. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент: ...

IV. Adabiy manbalar

36. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб (нашрга тайёрловчи П.Шамсиев) // Асарлар. 15 томлик. 13-том. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1966. 5-84-бетлар.
37. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб (П.Шамсиев матни асосида нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи С.Ғаниева) // МАТ. 20 томлик. 14-том. – Тошкент: Фан, 1998. 5-130-бетлар.
38. Алишер Навоий. Муншаот // МАТ. 20 томлик. 14-том. – Тошкент: Фан, 1998. 131-230-бетлар.
39. Алишер Навоий. Вақфия // МАТ. 20 томлик. 14-том. – Тошкент: Фан, 1998. 231-270-бетлар.
40. Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин // МАТ. 20 томлик. 15-том. – Тошкент: Фан, 1999. 7-88-бетлар.
41. Алишер Навоий. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер // МАТ. 20 томлик. 15-том. – Тошкент: Фан, 1999. 89-104-бетлар.
42. Алишер Навоий. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад // МАТ. 20 томлик. 15-том. – Тошкент: Фан, 1999. 105-123-бетлар.
43. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ. 20 томлик. 16-том. – Тошкент: Фан, 2000. 7-42-бетлар.
44. Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. МАТ. 20 томлик. 16-том. – Тошкент: Фан, 2000. 99-196-бетлар.
45. Алишер Навоий. Тарихи мулуки Ажам. МАТ. 20 томлик. 16-том. – Тошкент: Фан, 2000. 197-260-бетлар.
46. Алишер Навоий. Муножот. МАТ. 20 томлик. 16-том. – Тошкент: Фан, 2000. 293-302-бетлар.
47. Алишер Навоий. Насойим ул-муҳаббат. МАТ. 20 томлик. 17-том. – Тошкент: Фан, 2001.
48. Алишер Навоий. Тарихи анбиё ва ҳукамо. – Самарқанд: АСН бўлими, 1990.
49. Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин (“Ҳайратланганлар бешлиги”. Нашрга тайёрловчи С.Ғаниева). – Тошкент: ТошДШИ нашри, 2004.

50. O'zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi. I tom. – Toshkent: Uzped-nashr, 1941. 273-298-betlar.
51. Ўзбек адабиёти (Хрестоматия). 5 томлик. 2-том. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1959. 521-545.